12.20 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlari bo‘yicha ularga tenglashtirilgan shaxslarga, **“Jamiyat”** ning sobiq **“Xodimlar”** i bo‘lgan yolg‘iz pensionerlarga, islayotgan **“Xodimlar”** qatoridagi nogironlarga va islab chiqarishdagi baxtsiz xodisa natijasida nogironlik olganlarga **“Yangi yil”**, **“Mustaqillik kuni”**, **“Xotira va qadrlash kuni”**, **“Navruz”** bayramlarida **“Ish beruvchi”** oziq-ovqat to‘plami shaklida adresli ijtimoiy yordam berish majburiyatini oladi.

12.21 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi choratadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5969-son Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida **“Jamiyat”** ning majburiyatlari:

12.22.1 Karantinga oid choralar amal qilishi davrida **“Ish beruvchi” “Xodimlar”** ni, ayniqsa homilador ayollar, keksalar, imkoniyati cheklangan hamda surunkali kasallikka chalingan shaxslarni, ularning roziligi bilan, masofadan turib ishlash usuliga, qulay ish grafigiga yoki uydin turib ishlashga o‘tkazishi mumkin.

12.22.2 Masofadan turib ishlash uchun **“Xodim”** ish vaqtini o‘z xohishiga ko‘ra taqsimlashini hisobga olib, bajargan ishi uchun unga qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda ish haqi to‘lanadi. Shu bilan birga, unga ishdan tashqari ish, dam olish kunlaridagi va ishlamaydigan bayram kunlaridagi ish, shuningdek tungi vaqtdagi ish uchun mehnatga haq to‘lash shartlari tatbiq etilmaydi (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 461;463-moddalari).

12.22.3 **“Xodim”** masofadan turib ishlashga, uydin turib ishlashga yoki moslashuvchan ish tartibiga o‘tkazilganda, u ta‘til jadvaliga muvofiq mehnat ta‘tiliga chiqish, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik

nafaqalarini olish hamda qonun hujjatlarida va **“Shartnoma”** da nazarda tutilgan boshqa huquqlarni saqlab qoladi.

12.22.4 **“Xodim”** bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 454, 456, 459-moddalarida nazarda tutilgan shartlar bilan bir qatorda masofadan turib ishlashga o‘tkazish bo‘yicha kiritilgan o‘zgartirishlarda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- **“Ish beruvchi”** va **“Xodim”** o‘rtasida elektron hujjat aylanishini amalga oshirish tartibi;
- **“Xodim”** ning mehnat majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va (yoki) texnik vositalardan foydalanish tartibi, agar tomonlar o‘rtasida **“Xodim”** tomonidan unga tegishli asbob-uskunalar va (yoki) orgtexnika vositalaridan foydalanish to‘g‘risida kelishuv mavjud bo‘lsa;
- **“Ish beruvchi”** bilan doimiy aloqada bo‘lishini, shu jumladan Internet tarmog‘idan foydalanishni ta‘minlash maqsadida **“Xodim”**ni aloqa vositalari bilan ta‘minlash;
- **“Ish beruvchi”** tomonidan xodimga berilgan asbob-uskunalar va texnikalarga xodimning aybi bilan etkazilgan zararni **“Ish beruvchi”**ga qoplash bilan bog‘liq shartlar;
- **“Xodim”** o‘z mehnat vazifalarini bajarish uchun shaxsiy asbob-uskunalar va (yoki) texnik vositalardan, shuningdek aloqa vositalaridan, shu jumladan Internet tarmog‘idan foydalangan taqdirda xarajatlarni qoplash tartibi va shartlari;
- **“Xodim”** va **“Ish beruvchi”** ning zarur mehnat muhofazasi qoidalari va mehnat sharoitlariga rioya qilish majburiyatlari.

12.23 **“Xodimlar”** ga mehnat faoliyati bilan bog‘liq turli yuqumli kasalliklarga chalinish ehtimoli haqida ogohlantiruvchi ma‘lumotlar bilan taqdim etish, stendlar va tarqatma materiallar chop etish.

12.24 **“Xodimlar”** ni antiseptiklar va zarur sanitariya-gigiyena vositalari, ish joylarida niqoblar, kasalliklarni tekshirish uchun testlar, yuqumli kasalliklarga qarshi emlash, shuningdek, **“Jamiyat”** ga tegishli ish joylari, oshxonalar, dushxonalar, hojatxonalar, **“Jamiyat”** ning mablag‘lari hisobidan ishchilarni tashiydigan transport vositalarini dezinfeksiya qilinishi bilan ta‘minlash.

13. MADANIY-MA‘RIFIY, JISMONIY TARBIYA- SOG‘LOMLASHTIRISH, SPORT ISHLARI.

13.1 **“Jamiyat”** har bir moliyaviy yil uchun undan maqsadli foydalanish uchun tasdiqlangan smeta bo‘yicha har oyda **“Kasaba uyushmasi qo‘mitasi”** ning hisob-kitob raqamiga **“Jamiyat”** ning mehnatga haq to‘lash fondidan 1,0 % miqdorida o‘tkazilishini ta‘minlaydi.

13.2 **“Jamiyat”** quyidagilar uchun rag‘batlantirishni tashkil qiladi:

a) sportning futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, **“Kurash”** turlari bo‘yicha **“Jamiyat”**, shahar, viloyat va Respublika sharafini himoya qilgan korxonalar **“Xodimlar”** idan hamda sovrinli o‘rinlarni egallagan sportchilarga;

- viloyat, tarmoq va shahar tadbirlarida - bir oylik ish haqi miqdorida;
- respublika bo‘yicha - bir oylik ish haqining 1,5 miqdorida.

(O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 14 yanvardagi «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi 513-XII-son Qonuni 19-moddasining 2-qismi).

b) **“Jamiyat”**, shahar, viloyat va Respublika sharafini himoya qilgan va sovrinli o‘rinlarni egallagan badiiy havaskorlik jamoalarida qatnashgan **“Xodimlar”**:

- viloyat, tarmoq va shahar tadbirlarida - bir oylik ish haqi miqdorida;
- respublika bo‘yicha - bir oylik ish haqining 1,5 miqdorida.

g) respublika va viloyat forum va ko‘rik-tanlovlarda eng yaxshi yosh mutaxassis deb e‘tirof etilganlarga – bir oylik ish haqi miqdorida.

13.3 **“Jamiyat”** har yili **“Chimyon”** bolalar sog‘lomashtirish oromgohida zarur ta‘mirlash ishlarini (tasdiqlangan tadbirlarga muvofiq) amalga oshirish majburiyatini oladi.

13.4 **“Kasaba uyushmasi qo‘mitasi” “Ish beruvchi”** bilan birgalikda **“Chimyon”** bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida **“Ma‘naviyat va ma‘rifat”** xonasi (burchagi), kutubxonalar tashkil etib, ularni zarur stendlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va yangi badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlaydi (O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 6 dekabrda **“Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”**gi O‘RQ-588-son Qonunining 22-moddasining 1-qismi).

13.5 **“Tomonlar”** ishchilar va ularning oila a‘zolari o‘rtasida badiiy havaskorlik faoliyatini rivojlantirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, Respublikamizning tarixiy maskanlariga ekskursiyalar uyushtirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladi.

13.6 Davlat dasturlari ijrosi doirasida **“Xodimlar”** o‘rtasida fan, adabiyot, san‘at namoyandalari, ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan ijodiy uchrashuvlar, ma‘rifiy munozaralar-kechalari, turli mavzularda suhbatlar o‘tkazadi.

13.7 **“Xodimlar”** ga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mazmun-mohiyatini atroflicha tushuntirish maqsadida **“Ma‘naviyat soatlari”** o‘tkazadi.

13.8. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 09 apreldagi **“Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”**gi O‘RQ-394-son Qonuniga muvofiq xodimlar va ularning oila a‘zolari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish.

“Tomonlar” quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmlariga oladilar:

13.8.1 jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun moddiy va boshqa shart-sharoitlar yaratish (maxsus sport xonalarini ajratish), mehnat jamoalarida **“ishlab chiqarish gimnastikasi”** va **“sport daqiqalari”** ni joriy etish;

13.8.2 jamoat tashkilotlari va jamg‘armalari bilan birgalikda mehnatkashlar va ularning oila a‘zolarini turli sport to‘garaklari va seksiyalariga jalb etish, sport turlari bo‘yicha sport musobaqalari va spartakiadalarini o‘tkazish orqali ularni jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy ravishda shug‘ullanishiga erishish;

13.8.3 **“Jamiyat”** balansidagi sport inshootlari, stadionlar va sport maydonchalari, bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari, sog‘lomlashtirish muassasalari faoliyatini rivojlantirish, ularni ta‘minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, joriy va kapital ta‘mirlash, inventar va sport anjomlarini yangilash **“Jamiyat”** mablag‘lari hisobidan amalga oshirish;

13.8.4 **“Jamiyat”** da oyning bir shanba kunini **“Sport va salomatlik kuni”** deb e‘lon qilish hamda **“Ish beruvchi”** bilan hamkorlikda **“Xodimlar”** ning sport bilan shug‘ullanishi uchun shart-sharoit yaratish, jismoniy tarbiya jamoalarini tashkil etish va ularning ish faoliyatini yanada kuchaytirish choralarini ko‘rish.

14. AYOLLAR MEHNATINI TARTIBGA SOLISH. OILAVIY MAJBURIYATLARNI BAJARISH BILAN BAND BO‘LGAN SHAXSLAR VA AYOLLAR UCHUN QO‘SHIMCHA IMTIYOZ VA KAFOLATLAR.

14.1 **“Tomonlar”** O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan kafolatlarga rioya etish va imtiyozlar berish majburiyatini oladi:

a) homilador ayollarga (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 119; 129; 202; 227; 229; 280; 392, 394, 396, 398, 400, 403, 404; 408-moddalari);

b) ikki yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollar va shaxslarga (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 226; 237; 242; 280; 395; 405; 407-moddalari);

v) uch yoshgacha bo‘lgan bolasi bor ayollar va shaxslarga (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 226; 242; 396; 397; 405; 409-moddalari);

g) o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki yoki undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogiron bolasi bor ayollar va shaxslarga (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 119; 237; 401; 402-moddalari);

d) O‘n olti yoshga to‘lgunga qadar nogironligi bo‘lgan bolani tarbiyalayotgan ota-onadan biriga (ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxsga, vasiyga) (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 119-moddasi).

- e) 14 yoshgacha bo'lgan bir yoki bir nechta Bolani (o'n olti yoshgacha bo'lgan nogiron bolalarni) tarbiyalayotgan shaxslarga (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 96; 227; 228; 328; 396; 398; 400-moddalari);
- j) onasiz bolalarni tarbiyalayotgan shaxslar uchun (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 406-moddasi);
- z) oilaviy majburiyatlarni bajaruvchi shaxslardan biriga (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 202; 410-moddalari).

14.2 Ayollarning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash maqsadida **“Tomonlar”** Xalqaro mehnat tashkilotining quyidagi konvensiyalariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladilar:

- “Majburiy mehnat to'g'risida” 29-son (1930-y.);
- “Erkaklar va ayollar teng qiymatdagi ish uchun teng haq to'lash to'g'risida” 100-son (1951-y.);
- “Onalikni muhofaza qilish to'g'risida” 103-son (1952-y.);
- “Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida” 105-son (1957-y.);
- “Mehnat va ish turlari sohasida kamsitish to'g'risida” 111-son (1958-y.).

14.3 “Jamiyat” quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

14.3.1 Создать возможности для повышения квалификации и реализации права женщин на дополнительное образование.

14.3.1 Ayollarning qo'shimcha ma'lumot olish bo'yicha huquqlarini amalga oshirish va malakasini oshirishga imkoniyat yaratish.

14.4 “Ish beruvchi” quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

14.4.1 **“Ish beruvchi”** homilador ayollarni O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 403-moddasiga muvofiq kunlar bilan ta'minlasht.

14.4.2 Ikki yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan biriga (vasiysiga) dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari, bolani ovqatlantirish uchun qo'shimcha tanaffuslar beriladi. Bu tanaffuslar kamida har uch soatda, har biri o'ttiz minutdan kam bo'lmagan davomiylikda beriladi, ikki yoshga to'lmagan ikki yoki undan ortiq nafar farzandi bo'lgan taqdirda, tanaffusning davomiyligi kamida bir soat qilib belgilanadi. Ikki yoshga to'lmagan bola otasining yoki onasining (vasiysining) xohishiga ko'ra bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusga qo'shib berilishi yoxud ish kunining (smenaning), shu jumladan jamlangan holda tegishincha qisqartirilgan holda boshiga yoki oxiriga ko'chirilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 407-moddasi).

14.4.3 Mehnatidan vaqtincha foydalana olmaydigan ishlovchi ayollarga, ularning roziligi bilan, ushbu davr uchun ishga joylashishda yordam (ko'maklashish) ko'rsatilgan holda ish haqi saqlanmagan ta'til berish (**“Jamiyat”** imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda).

14.4.4 Homilador ayollarni va 3 yoshgacha bo'lgan bolasi bor ayollarni umumiy ish vaqti 8 soatdan ortiq bo'lgan tartib bo'yicha ishga jalb qilmaslik.

14.4.5 2 yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarni yoki ota-onalardan birini (vasiyni) yoki homilador ayollarni osonroq ishga o'tkazishda oldingi ish joyidagi o'rtacha oylik ish haqini saqlab qolish. (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 280; 281; 394; 395-moddalari).

14.4.6 Oliy Majlisning 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-son qarori ijrosini ta'minlashga ko'maklashish.

14.5 “Kasaba uyushmasi qo'mitasi” quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

14.5.1 Ayollar mehnatini yaxshilash uchun shart-sharoitlar yaratishga yordamlashish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ayollar salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan **“Jamiyat”** ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishda **“Jamiyat”**ga ko'maklashish.

14.6 “**Tomonlar**” quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmalariga oladilar:

14.6.1 O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 02-sentabrdagi 562-son-O‘RQ Qonuniga muvofiq quyidagi kafolatlarga rioya etish va imtiyozlar berish:

14.6.2 “**Jamiyat**” va uning tarkibiy bo‘linmalarining vakolatli shaxsiga xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash bo‘yicha mas‘uliyat yuklash.

14.6.3 Ishga qabul qilish va martabasi oshishida ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish.

14.6.4 Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi ish haqi tengsizligini bartaraf etish.

14.6.5 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “ Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuniga muvofiq kafolatlarga rioya etish va imtiyozlar berish.O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “ Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuniga muvofiq kafolatlarga rioya etish va imtiyozlar berish.

15. YOSHLAR UCHUN QO‘SHIMCHA IMTIYOZ VA KAFOLATLAR.

15.1 Yosh mutaxassislarining “**Jamiyat**” faoliyati va rivojlanishida yanada samarali ishtirok etishi, shuningdek, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalalarini kompleks hal etish uchun “**Tomonlar**” quyidagilarga kelishib oldilar:

15.1.1 Ishga joylashishning minimal yoshiga qat‘iy rioya qilish va bolalar mehnatining eng yomon shakllarining oldini olish bo‘yicha Xalqaro Mehnat Tashkilotining quyidagi Konventsiyalariga muvofiq maqsadli ishlarni amalga oshirish:

- “Ishga qabul qilishning eng kichik yosh to‘g‘risida”gi 183-son (1973-y.) ;

- “Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va ularga barham berish bo‘yicha zudlik bilan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 182-son (1999-y.).

15.1.2 Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha kompleks Dastur va uni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

15.1.3 Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan Dastur ijrosini ta‘minlashda faol ishtirok etish.

15.1.4 Yosh mutaxassislar kengashini tuzish.

15.1.5 Yosh ishchilar va mutaxassislar o‘rtasida kasbiy mahorat tanlovlarini o‘tkazish va boshqalar;

15.1.6 Yosh xodimlarning madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda, kasb mahorati tanlovlarida faol ishtirok etishini ta‘minlash.

15.1.7 Yosh oilalar a‘zolaridan “**Xodimlar**” ni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash.

15.2 Mazkur “**Shartnoma**” shartlarini bajarish maqsadida:

15.2.1 Shu jumladan 30 yoshgacha bo‘lgan “**Xodimlar**” yosh hisoblanadi;

15.2.2 Oliy va o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lgan, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha birinchi marta “**Jamiyat**” bilan mehnat shartnomasi tuzgan va oliy o‘quv yurtini tamomlagandan keyin 3 yil ishlagan “**Xodimlar**” yosh mutaxassislar hisoblanadi;

15.2.3 Har birining yoshi 30 yoshdan oshmagan, birinchi marta ro‘yxatga olingan er-xotinlar, yosh oilalar deb tan olinadi.

15.3 “**Tomonlar**” Mehnat kodeksida nazarda tutilgan kafolatlarga rioya qilish va imtiyozlar berish majburiyatini oladi:

15.3.1 18 yoshga to'lmagan **“Xodimlar”** uchun (118; 129; 227; 228; 234; 360; 411; 412; 413; 414; 415; 416; 417; 418; 419; 420; 421; 422-moddalari).

15.3.2 Mehnatni o'qish bilan birlashtirgan **“Xodimlar”** uchun (167; 227, 228; 280; 383; 384; 385; 386-moddalari).

15.3.3 Ta'lim muassasalarini tamomlagan **“Xodimlar”** uchun (68, 103-moddalari).

15.3.4 Talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini rahbarlik uchun yuqori malakali ishchilar, rahbarlar, mutaxassislarni jalb qilish va yoshlarni ishga qabul qilishda murabbiylar tayinlanishini ta'minlash.

15.4 **“Jamiyat” quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**

15.4.1 O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga mehnatni muhofaza qilish, ish vaqti, ta'tillar va boshqa mehnat sharoitlari sohasida qo'shimcha imtiyozlar berish va ularni **“Jamiyat”** ning DSDSda sog'lomlashtirishni amalga oshirish.

15.4.2 O'rta maxsus ta'lim muassasalarida yosh mutaxassislarni maqsadli tayyorlashni amalga oshirish.

15.4.3 Davlat grantlari asosida o'qigan va oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan kundan e'tiboran uch oy ichida yo'llanma bo'yicha olingan mutaxassisligiga doir ishga kirayotgan oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini, tegishli ta'lim muassasalarini tamomlagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini ishga qabul qilishda dastlabki sinov o'rnatilishiga yo'l qo'ymaslik uchun jamoatchilik nazoratini o'tkazish (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 129-moddasi).

15.4.4 Umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini, hamda davlat grantlari asosida o'qigan va oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan kundan e'tiboran uch oy ichida yo'llanma bo'yicha olingan mutaxassisligiga doir ishga kirayotgan oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini; tegishli ta'lim muassasalarini tamomlagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini **“Ish beruvchi”** tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi to'g'risida **“Ish beruvchi”** mahalliy mehnat organiga xabar bergan holda jamoatchilik nazoratini o'tkazish (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 129-moddasi).

15.5 **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi” quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**

15.5.1 Ishlayotgan yoshlarning ijtimoiy huquqlari va kafolatlarini himoya qilishni takomillashtirish uchun normativ-huquqiy bazadan foydalanish.

15.5.2 yoshlarni kasaba uyushmalari faoliyatiga jalb etish ishlarini olib borish, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini tizimli rag'batlantirishni amalga oshirish.

15.5.3 O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagandan so'ng **“Jamiyat”** ga ishga qabul qilingan **“Xodimlar”** ning mehnat shartnomalari tuzilishi va **“Shartnoma”** bilan tanishishi ustidan nazoratni ta'minlasin.

15.5.4 Tushuntirish ishlarini tashkil etish orqali yosh **“Xodimlar”** ni ish joylariga biriktirilishini ta'minlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish.

15.5.5 Ishga qabul qilingan yosh mutaxassislarning o'sishi va malakasining yanada oshishini monitoring qilish.

16. MEHNAT NIZOLARNI HAL ETISH.

16.1 **“Ish beruvchi”** va **“Xodim”** o'rtasidagi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqa hujjatlarni qo'llash, **“Shartnoma”** da nazarda tutilgan mehnat sharoitlari bo'yicha kelishmovchiliklar – Mehnat nizolarini ko'rib chiqish uchun **“Jamiyat”** da mehnat nizolari bo'yicha komissiyasi tuziladi. (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 547-moddasi).

16.2 Mehnat nizolari bo'yicha komissiyasi teng huquqli asosda **“Jamiyat”** va **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** ning teng miqdordagi vakillaridan 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Mehnat nizolari bo'yicha komissiyasining vakolat muddati 3 yil (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 547-moddasi).

16.3 Mehnat nizolari bo'yicha komissiyaning **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** dan bo'lgan a'zolari tegishli kasaba uyushmasi qo'mitasining qarori bilan, **“Jamiyat”** ning vakillari bo'lgan komissiya a'zolari esa – uning buyruq'i bilan tasdiqlanadi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 547-moddasi 6-qismi).

16.4 Mehnat nizolari bo'yicha komissiya yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiqish bo'yicha boshlang'ich organ hisoblanadi va yakka tartibdagi mehnat nizosini xodim ariza bergan kundan e'tiboran o'n kalendar kun ichida ko'rib chiqishi shart. **“Xodim”** mehnat nizolari bo'yicha komissiyaga o'z huquqi buzilganligi to'g'risida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan e'tiboran olti oylik muddat ichida murojaat qilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 554-moddasi 1-qismi).

16.5 Mehnat nizolari bo'yicha komissiya yakka tartibdagi mehnat nizosini **“Xodim”** ariza bergan kundan e'tiboran o'n kalendar kun ichida ko'rib chiqishi shart (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 551-moddasi).

16.6 Mehnat nizosi ariza bergan **“Xodim”** yoki uning vakili ishtirokida ko'rib chiqiladi. **“Xodim”** yoki uning vakili yo'qligida mehnat nizosini ko'rib chiqishga faqat **“Xodim”** ning yozma arizasi asosida yo'l qo'yiladi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 551-moddasi 3-qismi).

16.7 Mehnat nizolari bo'yicha komissiyaning qarori ustidan manfaatdor **“Xodimlar”** komissiya qarorining ko'chirma nusxasi o'ziga topshirilgan kundan e'tiboran 10 kunlik muddatda sudga shikoyat qilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 556-moddasi).

16.8 Yakka tartibdagi mehnat nizosini bevosita ko'rib chiqish va ishni ko'rib chiqishga tayyorlash davrida mehnat nizolari bo'yicha komissiyaning a'zolari bo'lgan **“Xodimlar”** o'rtacha ish haqi saqlangan holda mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod etiladi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 557-moddasi).

17. IJTIMOY SHERIKLIK. KASABA UYUSHMASI FAOLIYATINING KAFOLATLARIGA RIOYA QILISH

17.1 **“Ish beruvchi”** va **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** o'z munosabatlarini ijtimoiy sheriklik, hamkorlik, o'zaro manfaatlarni hurmat qilish tamoyillari asosida hamda Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, **“Kasaba uyushmalari to'g'risida”**gi Qonuniga (2019-yil 6-dekabrda O'RQ-588-sonli) va O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq quradi.

17.2 **“Jamiyat”** **“Kasaba qo'mitasi”** ni **“Jamiyat”** mehnat jamoasining vakillik organi deb e'tirof etadi va unga ustav faoliyatini amalga oshirishda yordam beradi.

17.3 **“Jamiyat”** **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** a'zolari mehnat jamoasi a'zolari bo'lib, **“Jamiyat”** da mavjud bo'lgan barcha imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega. (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 45-moddasi, 2019-yil 6-dekabrda **“Kasaba uyushmalari to'g'risida”**gi O'RQ-588-sonli Qonuning 18-moddasi).

17.4 **“Jamiyat”** ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha doimiy komissiya a'zolarini, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillarini va mehnat bo'yicha nizolar komissiyasi a'zolarini ishchilar vakillari sifatida tan oladi.

17.5 **“Ish beruvchi”** **“Xodimlar”** ning yozma arizalari asosida **“Jamiyat”** hisob bo'limi orqali har oy 1% miqdorida kasaba uyushmasiga a'zolik badallarini ushlab qolishni amalga oshiradi va ularni o'z vaqtida va to'liq hajmda **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** hisob-kitob raqamiga o'tkazib beradi.

17.6 **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** ga ushlab qolingani a'zolik badallarini o'tkazish byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

17.7 A'zolik badallari bir oydan ortiq muddatga o'tkazilmagan taqdirda, **“Ish beruvchi”** aybdor mansabdor shaxsga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilishini kafolatlaydi.

17.8 **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** ga o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan, aloqa vositalari, mebellar, kompyuter texnikasi bilan jihozlangan binolardan tekin foydalanishni ta'minlaydi va engil avtomobil

transportini tekin foydalanishga ajratadi. (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 45-moddasi, 2019-yil 6-dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida” gi O‘RQ-588-sonli Qonuning 18-moddasi).

17.7 “Ish beruvchi” quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

17.7.1 “**Kasaba uyushmasi qo‘mitasi**” ning “**Xodimlar**” ning vakillik organi sifatidagi huquqlariga amal qiladi va uning faoliyatiga ko‘maklashadi. “**Xodimlar**” ning manfaatlariga daxldor qarorlar qabul qilish uchun “**Kasaba uyushmasi qo‘mitasi**” bilan maslahatlashuvlar o‘tkazadi va qonun va mahalliy normativ hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda esa ularning roziligini olish. (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 45-moddasi 1,2,3-qismlari).

17.7.2 O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 45-moddasi va 2019-yil 6-dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida” gi O‘RQ-588-sonli Qonuning 18-moddasiga muvofiq, xodimlarning vakili bo‘lgan va ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilmagan shaxslarga ish vaqtida xodimlarning manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish majburiyatlarini bajarish uchun o‘rtacha ish haqi saqlangan holda vaqt berish.

17.7.3 Kasaba uyushmalari organlarining a‘zolari ishlab chiqarishdagi ishidan kasaba uyushmalari tomonidan chaqiriladigan qurultoylarda, konferensiyalarda delegat sifatida, shuningdek kasaba uyushmalarining plenumlari va rayosatlarida ishidan ishtirok etish vaqtiga ozod qilinib, ularga “**Kasaba uyushmasi qo‘mitasi**” ning mablag‘lari hisobidan o‘rtacha ish haqi miqdorida haq to‘lash. (2019-yil 6-dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida” gi O‘RQ-588-sonli Qonuning 15-moddasi).

17.7.4 Mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, “**Xodimlar**” ning huquqiy bilimini oshirishga ko‘maklashish. (2019-yil 6-dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida” gi O‘RQ-588-sonli Qonuning 1-qism 11-moddasi).

17.7.5 “**Jamiyat**” da ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy-ma‘rifiy faoliyatni rivojlantirishni tashkil etaish, turli tadbirlarni ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta‘minlash.

17.8 Kasaba uyushmalari organlariga saylab qo‘yiladigan lavozimlarga saylanganligi oqibatida ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilgan “**Xodimlar**” ga “**Ish beruvchi**” ularning saylab qo‘yiladigan lavozimdagi vakolatlari tugaganidan keyin avvalgi ishi (lavozimi) bilan ta‘minlashga, bunday ish (lavozim) mavjud bo‘lmaganda esa boshqa teng ish (lavozim) bilan yoki “**Xodim**” roziligi bilan ta‘minlashga majburdir.

17.9 Kasaba uyushmasi organlariga saylangan xodimlarga tegishli ish (lavozim) berish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, ular qonun hujjatlarida yoki jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida nazarda tutilgan imtiyozlardan foydalanadi (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 44-moddasi).

18 “SHARTNOMA” NING BAJARILISHINI NAZORAT QILISH.

18.1 Mazkur “**Shartnoma**” ni yangi yoki o‘zgartirish tashabbuskori har qanday “**Tomonlar**” bo‘lishi mumkin, bu haqda tashabbus ko‘rsatgan “**Tomon**” boshqa “**Tomon**” ga yozma xabar yuborishi lozim. Yangi “**Shartnoma**” ni tuzish bo‘yicha muzokaralar boshlanganligi to‘g‘risida xabar oldingi “**Shartnoma**” ning amal qilish muddati tugashidan uch oy oldin yuborilishi lozim (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 60-moddasi).

Mazkur “**Shartnoma**” ni yangi yoki o‘zgartirish tashabbuskori har qanday “**Tomonlar**” bo‘lishi mumkin, bu haqda tashabbus ko‘rsatgan “**Tomon**” boshqa “**Tomon**” ga yozma xabar yuborishi lozim. Yangi “**Shartnoma**” ni tuzish bo‘yicha muzokaralar boshlanganligi to‘g‘risida xabar oldingi “**Shartnoma**” ning amal qilish muddati tugashidan uch oy oldin yuborilishi lozim (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 60-moddasi).

18.2 Jamoaviy muzokaralar boshlanishi to‘g‘risida bildirishnoma olgan “**Tomon**” yetti kunlik muddatda jamoaviy muzokaralarga kirishishi shart (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 61-moddasi).

18.3 Muzokaralar o‘tkazish va yangi “**Shartnoma**” loyihagini tayyorlash yoki amaldagi “**Shartnoma**” ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki yuzaga kelgan masalalarni tezkor hal etish va “**Shartnoma**” ning bajarilishini nazorat qilish “**Xodimlar**” va “**Ish beruvchi**” ning teng miqdordagi vakillaridan iborat

ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha doimiy ishlaydigan ikki tomonlama komissiya tomonidan amalga oshiriladi. **“Tomonlar”** ning har biridan bo'lgan vakillarning son jihatidan tarkibi **“Ish beruvchi”** ning ularga **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** bilan kelishuviga ko'ra belgilanadi va har tomondan o'n nafar vakilni tashkil etadi. Komissiya o'z ishida mazkur komissiya to'g'risidagi Nizomga amal qiladi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 49, 62-moddasi).

18.4 Muzokaralarda ishtirok etayotgan **“Tomonlar”** ga yangi **“Shartnoma”** mazmunini tashkil etuvchi masalalarni, amaldagi kelishuvga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni tanlash va muhokama qilishda to'liq erkinlik beriladi.

18.5 Agar jamoaviy muzokaralar jarayonida jamoaviy muzokaralar **“Tomonlar”** i muzokaralar predmeti bo'lgan ayrim masalalar yuzasidan kelishuvga erisha olmagan bo'lsa, ular ixtiloflarga sabab bo'lmagan masalalarga doir kelishuvni rasmiylashtiradi va bir vaqtning o'zida kelishuvga erishib bo'lmagan masalalar bo'yicha ixtiloflar bayonnomasini tuzadi.

Agar jamoaviy muzokaralar jarayonida muzokaralar predmeti bo'lgan barcha masalalar yuzasidan kelishilgan qaror qabul qilinmagan bo'lsa ham muzokaralar **“Tomonlar”** i ixtiloflar bayonnomasini tuzadi.

Ixtiloflar bayonnomasida **“Tomonlar”** ning ixtiloflarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan choralar va jamoaviy muzokaralarni qayta tiklash muddatlari to'g'risidagi kelishib olingan takliflari ko'rsatiladi.

“Tomonlar” jamoaviy muzokaralarni qayta tiklash chog'ida hal qila olmagan ixtiloflarni hal etishga (tartibga solishga) doir nizolar Mehnat kodeksida jamoaviy mehnat nizolarini hal etish uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

18.6 **“Tomonlar”** yiliga bir marta ushbu **“Shartnoma”** ning bajarilishini tekshirish majburiyatini oladilar, natijalar har yili keyingi yilning mart oyidan kechiktirmay har ikki **“Tomon”** vakillaridan iborat komissiya tomonidan umumlashtiriladi va natijalari mehnat jamoasining umumiy yig'ilishda (konferentsiya) ko'rib chiqiladi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 79-moddasi).

18.7 **“Tomonlar”**: tarmoq (tarif), hududiy va hududiy-tarmoqli shartnomalarni tan oladilar va ularga bajarish majburiyatini oladilar. Agar ushbu kelishuvlarning **“Tomonlar”** i ularga sezilarli o'zgartirishlar kiritisa, **“Jamiyat”** va **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** ushbu **“Shartnoma”** ga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida 15 kun ichida muzokaralar olib borish majburiyatini oladi.

18.8 **“Tomonlar”** ushbu **“Shartnoma”** da aks ettirilgan manfaatlarini yangi **“Shartnoma”** bo'yicha barcha shartlar va majburiyatlarni majburiy bajarish sharti bilan amalga oshirish mumkinligiga kelishib oldilar.

18.9 **“Shartnoma”** loyahasini ma'qullash bo'yicha konferentsiya o'tkazilishidan oldin **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** o'z loyahasini yuqori turuvchi kasaba uyushma organiga (tarmoq kasaba uyushmasi vakolatxonasiga) yoki yurudik firmasiga ekspertizadan o'tkazish uchun kiritadi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 69-moddasi).

18.10 **“Tomonlar”** imzolaganidan keyin bir oy ichida ushbu **“Shartnoma”** ko'paytiriladi va **“Jamiyat”** ning barcha tarkibiy bo'linmalariga yuboriladi. Shartnoma tuzuvchi **“Tomonlar”** ushbu **“Shartnoma”** **“Jamiyat”** bo'linmalarining barcha jamoalariga etkazilishini ta'minlaydi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 78-moddasi).

18.11 **“Ish beruvchi”** bir hafta muddatda **“Shartnoma”** ni bajarishdagi mavjud kamchiliklar to'g'risida **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** ning taqdimnomalarini ko'rib chiqadi va yozma ravishda asoslantirilgan javob beradi, **“Shartnoma”** majburiyatlarni bajarmaganlikda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan choralar ko'riladi.

18.12 **“Ish beruvchi”** ning **“Shartnoma”** ni tuzish, unga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish bo'yicha muzokaralarda qatnashishdan bosh tortish yoki uning talablariga rioya qilmaslik bilan bog'liq harakatlari mehnat qonunchiligini buzish deb topiladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

18.13 **“Shartnoma”** ga uning amal qilish muddati davomida yoki yangi muddatga uzaytirilganda kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar qo‘shimcha shartnoma shaklida alohida hujjat bilan rasmiylashtiriladi va ushbu **“Shartnoma”** ning ajralmas qismi hisoblanadi.

18.14 **“Shartnoma”** ga ilovalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

18.15 Mazkur **“Shartnoma”** ni **“Tomonlar”** imzolagandan so‘ng, uni yuqori tarmoq kasaba uyushma organiga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim etadilar.

19 “SHARTNOMA” BO‘YICHA MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK YOKI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK.

19.1 **Kasaba uyushmasi qo‘mitasi** **“Ish beruvchi”** tomonidan mazkur **“Shartnoma”** shartlarini buzuvchi qaror qabul qilingan taqdirda, bir hafta muddatda ko‘rib chiqiladigan ushbu qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha taklif kiritishga haqli. **“Ish beruvchi”** **“Kasaba uyushmasi qo‘mitasi”** ning ushbu talablarini qondirishdan bosh tortsa yoki belgilangan muddatda kelishuvga erishilmasa, kelishmovchiliklar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi (2019-yil 6-dekabrda “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-588-sonli Qonuning 46-moddasi).

19.2 Mazkur **“Shartnoma”** shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik to‘g‘risidagi **“Tomonlar”** dan har qandayining arizalari boshqa **“Tomon”** tomonidan ikki hafta ichida ko‘rib chiqiladi.

19.3 **“Shartnoma”** bo‘yicha majburiyatlarni buzganlikda yoki bajarmaganlikda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va mazkur **“Shartnoma”** da belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

1-sonli Ilova

«Kelishilgan»
«Ammofos-Maxam»
Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi
_____ M.M. Gulomova
«__» _____ 20__ yil

«Tasqidayman»
«Ammofos-Maxam»
Boshqaruv Raisi
_____ A.T. Tursunov
«__» _____ 20__ yil

**«AMMOFOS-MAXAM» AJ
ISHCHI - XODIMLARI UCHUN
ICHKI MEHNAT TARTIB QOIDALARI**

1. Umumiy qoidalar

1.1 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Mehnat kodeksiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har bir fuqaro ishlash, erkin ish tanlash, adolatli mehnat sharoitlariga, ishsizlikdan himoyalash huquqiga ega.

1.2 Ichki mehnat tartib qoidalari (keyingi o‘rinlarda **“Qoidalar”** deb yuritiladi) mehnat qonunchiligiga muvofiq **“Xodimlar”** ni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish tartibini, mehnat shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari, ish vaqti, dam olish vaqtlari, **“Xodimlar”** ga nisbatan qo‘llaniladigan rag‘batlantirish va jarimalar, shuningdek **“Ish beruvchi”** bilan mehnat munosabatlarini tartibga solish bilan bog‘liq boshqa masalalarni tartibga soluvchi asosiy lokal hujjatdir (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 296-moddasi).

1.3 **“Qoidalar”** va ular tasdiqlangan kundan boshlab **“Jamiyat”** da kuchga kiradi va qo‘llaniladi va bekor qilinmaguncha yoki yangilari bilan almashtirilgunga qadar amal qiladi.

1.4 **“Xodimlar”** va **“Ish beruvchi”** uchun ushbu **“Qoidalar”**ga rioya qilish majburiyat bo‘lib, unga rioya qilmaslik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi mumkin.

2. MEHNAT SHARTNOMASINI TUZISH, O‘ZGARTIRISH, BEKOR QILISH TARTIBI.

2.1 Ishga qabul qilish tuzilgan mehnat shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

2.2 Mehnat shartnomasi **“Xodim”** va **“Ish beruvchi”** o‘rtasidagi taraflarning o‘zaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv bo‘lib, unga muvofiq **“Xodim”** **“Ish beruvchi”** ning manfaatini ko‘zlab, ushbu kelishuvda belgilangan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazorati ostida shaxsan bajarish, ichki mehnat tartibiga rioya etish majburiyatini, **“Ish beruvchi”** esa **“Xodim”** ga shartlashilgan mehnat vazifasi bo‘yicha ish berish, **“Xodim”** ga ish haqini o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lash, mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda va ushbu **“Qoidalar”** da nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini ta‘minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 103-moddasi).

2.3 Ishga qabul qilish **“Ish beruvchi”** ga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish (zarur hollarda, **“Jamiyat”** tomonidan belgilangan tartibda tanlov asosida) yoki davlat organlarining yo‘llanmasi bilan amalga oshiriladi.

2.4 O‘n olti yoshdan boshlab ishga qabul qilish yo‘l qo‘yiladi.

Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta‘lim maktab, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarining, kasb-hunar maktablarining, kollejlari va texnikumlarning o‘quvchilarini ularning sog‘lig‘iga hamda ma‘naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, o‘qitish jarayonini buzmaydigan yengil mehnatni o‘qishdan bo‘sh vaqtida bajarishi uchun ishga qabul qilishga - ular o‘n besh yoshga to‘lishi bilan ota-onadan birining (ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxsning) yozma roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarni ishga qabul qilish va ularning mehnatini qo‘llash O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 412-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

2.5 Ishga qabul qilish chog‘ida ishga kirayotgan shaxs quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- pasportni yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatni yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani, o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslar esa tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomani yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani;
- oxirgi ish joyi bo‘yicha tasdiqlangan qog‘oz shaklidagi mehnat daftarchasini yoki oxirgi ish joyidan tasdiqlangan elektron mehnat daftarchasidan ko‘chirmani, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno. O‘rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasining o‘rniga asosiy ish joyidan olingan belgilangan namunadagi ma‘lumotnomani taqdim etadilar;
- harbiy xizmatdagilar yoki chaqiriluvchilar uchun tegishli ravishda harbiy guvohnomani yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnomani;

- oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini tamomlaganligi to'g'risidagi diplomni, ushbu ishni bajarish uchun faqat maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar qo'yilishi mumkin bo'lsa, o'sha ishga kirish chog'ida ushbu ishni bajarish huquqiga doir guvohnomani (sertifikatni) yoki boshqa tegishli hujjatni;
- ushbu ishni bajarish uchun faqat maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar qo'yilishi mumkin bo'lsa, o'sha ishga kirish chog'ida ushbu ishni bajarish huquqiga doir guvohnomani (sertifikatni) yoki boshqa tegishli hujjatni;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini (STIR);
- jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini, birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar bundan mustasno.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda quyidagilar taqdim etiladi:

- Mehnat kodeksining 360-moddasida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan - tibbiy ko'rik natijalari to'g'risidagi hujjat (ma'lumotnoma xulosasi).
- o'n olti yoshga to'lmagan shaxslar tomonidan - ota-onadan birining yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi;
- ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar to'g'risidagi diplomlar, mualliflik guvohnomalari, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxatlari va boshqalar, ilmiy va ijodiy **"Xodimlar"** ning qonun hujjatlariga muvofiq nashrlari nusxalari;
- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan - yashash guvohnomasi.

Ishga kirish chog'ida ariza beruvchidan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.

Ishga kirish uchun ariza bergan shaxsning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjati haqiqiy bo'lmasa, ishga qabul qilish rad etilishi mumkin.

2.6 Ishga quyidagi hollarda qabul qilish taqiqlanadi:

- ushbu **"Qoidalar"** ning 2.5-bandida nazarda tutilgan hujjatlari bo'lmagan shaxslar;
- qonun hujjatlarida tibbiy ko'rikdan o'tish shart bo'lgan hollarda tibbiy ko'rikdan o'tmagan shaxslar, shuningdek, tibbiy xulosaga ko'ra, sog'lig'ining holati bo'yicha qarshi ko'rsatma bo'lgan ishga taqiqlangan ishchilar;
- sud hukmi bilan muayyan lavozimlarni egallash yoki ishda bajarishi taqiqlangan muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar:
- o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinlarning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari), agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanadi;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

2.7 Ishga joylashish uchun ariza bergan shaxsga ish beruvchi vakolat bergan mansabdor shaxslar bilan mehnat shartnomasini muzokara qilish uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

2.8 Mehnat shartnomasi taraflari o'rtasida kelishuv bo'yicha muzokaralar davomida quyidagilar aniqlanadi:

- ish joyi;
- mehnat vazifasi — muayyan kasb, mutaxassislik, malaka yoki lavozim bo'yicha ish, shuningdek **"Xodim"** ga topshiriladigan ishning aniq turi;
- ishning boshlanish sanasi - **"Xodim"** mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni bajarishga kirishishi kerak bo'lgan kalendar sana;
- mehnatga haq to'lash shartlari (shu jumladan **"Xodim"** ning tarif stavkasi yoki maosh miqdori, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va rag'batlantiruvchi to'lovlar);
- **"Xodim"** bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilgan taqdirda mehnat shartnomasining muddati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga yoki boshqa qonunlarga muvofiq muddatli shartnomani tuzish uchun asoslar;
- ish vaqti va dam olish vaqti rejimi;
- ish joyidagi mehnat sharoitlarining xususiyatlari ko'rsatilgan holda normal sharoitlardan farq qiladigan sharoitlardagi ish uchun kafolatlar va kompensatsiyalar, agar xodim mazkur ishga qabul qilinayotgan bo'lsa;

- zarur bo'lgan hollarda ishning xususiyatini belgilaydigan shartlar (ko'chma, sayyor, yo'ldagi, ishning boshqa xususiyati);
- mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda boshqa shartlar.

Mehnat shartnomasini tuzishda qo'shimcha shartlar nazarda tutilishi mumkin:

- ish joyini aniqlashtirish (tarkibiy bo'linma va uning joylashgan eri ko'rsatilgan holda) va (yoki) ish joyi to'g'risida;
- ishga qabul qilish chog'idagi dastlabki sinov haqida;
- bir necha kasbda (lavozimda) ishlashlik to'g'risida;
- davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilmaslik haqida;
- agar o'qitish **“Ish beruvchi”** ning mablag'lari hisobidan olib borilgan bo'lsa, xodimning o'qishdan keyin shartnomada belgilangan muddatdan kam bo'lmagan muddatni ishlab berish majburiyati to'g'risida;
- **“Xodim”** ni qo'shimcha sug'urta qilish turlari va shartlari haqida;
- **“Xodim”**ga va uning oila a'zolariga taqdim etiladigan ijtimoiy-maishiy sharoitlar to'g'risida;
- **“Xodim”** ning ish sharoitlariga nisbatan qo'llaniladigan **“Xodim”** ning va **“Ish beruvchi”** ning mehnat to'g'risidagi qonunchilikda hamda mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan huquqlari va majburiyatlarini aniqlashtirish haqida.

2.9 Mehnat shartnomasi tuziladi:

- nomuayyan muddatga;
- 3 yildan ko'p bo'lmagan muayyan muddatga (muddatli mehnat shartnomasi).

Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati shartlashilmagan bo'lsa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.

Muddatli mehnat shartnomasi tuziladi:

- mehnat to'g'risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomasiga muvofiq ish joyi o'zida saqlanib qoladigan, yo'q bo'lgan **“Xodim”** ning majburiyatlarini bajarish vaqtiga;
- vaqtinchalik (ikki oygacha) ishlarni bajarish vaqtiga;
- tabiiy sharoitlar tufayli ish faqat muayyan davr (mavsum) ichida amalga oshirilishi mumkin bo'lganda mavsumiy ishlarni bajarish uchun;
- ishning tamomlanishi aniq sana bilan belgilanishi mumkin bo'lmagan hollarda, muddatli xususiyatga ega bo'lgan, oldindan belgilangan ishlarni bajarish uchun qabul qilinadigan shaxslar bilan.

Muddatli mehnat shartnomasi Mehnat kodeksiga yoki boshqa qonunga muvofiq o'zga hollarda ham tuzilishi mumkin.

2.10 Har bir ishga qabul qilinayotgan **“Xodim”** (shuningdek o'rindoshlar) bilan mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo'lgan kamida 2 nusxada yozma shaklda tuzilib, ularning har biri taraflar tomonidan imzolanadi.

Mehnat shartnomasining har bir nusxasi **“Xodim”** ning va **“Ish beruvchi”** ning ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning imzolari bilan mustahkamlanadi va uning imzosi **“Jamiyat”** muhri bilan tasdiqlanadi.

Mehnat shartnomasining bir nusxasi **“Xodim”** ga beriladi, boshqasi **“Ish beruvchi”** da saqlanadi. Mehnat shartnomasining nusxasi **“Xodim”** tomonidan olinganligi **“Ish beruvchi”** da saqlanadigan mehnat shartnomasi nusxasidagi **“Xodim”** mehnat shartnomasining nusxasini olganligi to'g'risidagi alohida imzosi bilan tasdiqlanadi.

2.11 Ishga qabul qilish **“Ish beruvchi”** ning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruq chiqarish uchun **“Xodim”** bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asos bo'ladi.

“**Xodim**” ni ishga qabul qilish to‘g‘risidagi buyruq tuzilgan mehnat shartnomasining mazmuniga qat‘iy muvofiq ravishda chiqariladi va ish haqiqiy boshlangan kundan boshlab uch kun ichida “**Xodim**” ga imzosi olingan holda e‘lon qilinadi.

Ishga qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxs tomonidan yoki uning ruxsati bilan “**Xodim**” ni haqiqatda ishga qo‘yish, ishga qabul qilish lozim darajada rasmiylashtirilganligidan yoki rasmiylashtirilmaganligidan qat‘i nazar, mehnat shartnomasini ish boshlangan kundan e‘tiboran tuzish deb hisoblanadi.

Mehnat shartnomasi “**Ish beruvchi**” va “**Xodim**” tomonidan imzolangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

“**Xodim**” mehnat shartnomasida belgilangan sanadan e‘tiboran mehnat vazifalarini bajarishga kirishishi shart.

Agar mehnat shartnomasida ish boshlanadigan kun belgilanmagan bo‘lsa, “**Xodim**” shartnoma kuchga kirgan kundan keyingi ish kunida ishga kirishishi kerak.

2.12 “**Ish beruvchi**” ishga qabul qilishni rad etishga haqli emas:

- agar bunday rad etish “**Xodim**” ning ishbilarmonlik fazilatlarini bilan bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan bo‘lsa;
- “**Ish beruvchi**” tomonidan ishga taklif etilgan shaxslarga;
- “**Ish beruvchi**” qonunga muvofiq mehnat shartnomasini tuzishi shart bo‘lgan shaxslar bilan (ish o‘rinlarining belgilangan eng kam soni hisobiga ishga yuborilgan shaxslarni, ish beruvchi alohida asoslar bo‘yicha mehnat shartnomasini bekor qilgan shaxslar bilan, ular qayta ishga qabul qilingan taqdirda va boshqalar);
- homiladorlik yoki farzandlar borligi bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra;
- sudlanganligi, shu jumladan tugallangan va olib tashlangan sudlanganligi sababli shaxslarni, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno, yoki shaxslarni ularning yaqin qarindoshlari sudlanganligi, shu jumladan tugallangan sudlanganligi munosabati bilan;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda, “**Ish beruvchi**” tomonidan imzolangan ishga qabul qilishni rad etish sabablarining yozma asosini ishga qabul qilinishi rad etilgan shaxsning talabiga ko‘ra uch kunlik muddatda taqdim etishi shart.

Ishga qabul qilish noqonuniy rad etilgan taqdirda “**Xodim**” sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

2.13 Ishga qabul qilish chog‘ida “**Ish beruvchi**” ishga kirayotgan “**Xodim**” ni oldindan (mehnat shartnomasi imzolanganigacha) quyidagilar bilan tanishtirishi shart:

- ushbu shaxs qaysi ishni bajarish uchun ishga qabul qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha ishning mazmuni bilan;
- mehnat shartnomasida shart qilib ko‘rsatilgan ish bajariladigan mehnat sharoitlari bilan;
- ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomasi, uning mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa ichki hujjatlar bilan;
- xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi, mehnat gigienasi, yong‘indan xavfsizligi qoidalari bilan.

2.14 Ishga birinchi marta kirayotgan va korxonada besh kundan ortiq ishlagan shaxslarga “**Ish beruvchi**” elektron mehnat daftarchasini rasmiylashtirilishi shart, o‘rindoshlik asosidagi ishchilar bundan mustasno. Kadrlar boshqarmasi xodimlari uch kundan kechiktirmay mehnat daftarchasiga tegishli yozuvni kiritishlari va “**Xodim**” ni T-2 shaxsiy kartasiga imzo qo‘ygan holda tanishtirishlari va mehnat daftarchasidagi yozuvga muvofiq unda yozuv qat‘iy ravishda kiritilishi shart.

2.15 Ishga qabul qilishda mehnat shartnomasida “**Xodim**” ning tayinlangan ishga muvofiqligini tekshirish uchun dastlabki sinovdan o‘tish sharti kelishib olinishi mumkin. Agar bunday kelishuv mavjud bo‘lmasa, “**Xodim**” dastlabki sinovsiz qabul qilingan deb hisoblanadi.

2.16 Dastlabki sinov muddati 3 oydan oshmasligi kerak.

Dastlabki sinov muddati tugaguniga qadar taraflarning har biri ikkinchi tarafni kamida 3 kun oldin yozma shaklda ogohlantirgan holda mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli.

“Ish beruvchi” “Xodim” bilan tuzilgan mehnat shartnomasini sinov natijasi qoniqarsiz bo‘lganda, **“Xodim”** ni sinovdan o‘tmagan deb e’tirof etish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan sabablarni ko‘rsatgan holda o‘z tashabbusiga ko‘ra, dastlabki sinov davrida bekor qilishga haqli.

“Xodim” ning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini dastlabki sinov davrida bekor qilish uchun **“Xodim”** ning yozma arizasi asos bo‘lib, unda uning mehnatga oid munosabatlarni haqiqatda tugatish istagi aks ettirilishi kerak. Bunda **“Xodim”** ni mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishga undagan sabablar ahamiyatga ega emas.

“Xodim” ning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini dastlabki sinov davrida bekor qilish uchun **“Xodim”** ning yozma arizasi asos bo‘lib, unda uning mehnatga oid munosabatlarni haqiqatda tugatish istagi aks ettirilishi kerak. Bunda **“Xodim”** ni mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishga undagan sabablar ahamiyatga ega emas.

Agar mehnat shartnomasida nazarda tutilgan dastlabki sinov muddati tugagan bo‘lsa yoki ushbu muddat tugashiga kamida uch kun qolgan bo‘lsa hamda **“Xodim”** yoki **“Ish beruvchi”** uch kunlik ogohlantirish muddatini qisqartirishga o‘z roziligini bermasa, mehnat shartnomasining amal qilishi davom etadi va kelgusida uni bekor qilishga umumiy asoslarda yo‘l qo‘yiladi. Agar mehnat shartnomasida nazarda tutilgan dastlabki sinov muddati tugagan bo‘lsa yoki ushbu muddat tugashiga kamida uch kun qolgan bo‘lsa hamda **“Xodim”** yoki **“Ish beruvchi”** uch kunlik ogohlantirish muddatini qisqartirishga o‘z roziligini bermasa, mehnat shartnomasining amal qilishi davom etadi va kelgusida uni bekor qilishga umumiy asoslarda yo‘l qo‘yiladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri va **“Xodim”** haqiqatda ishda bo‘lmagan boshqa davrlar dastlabki sinov muddatiga qo‘shilmaydi.

Dastlabki sinov davrida **“Xodim”** ga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikning va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarning amal qilishi to‘liq tatbiq etiladi.

Quyidagilar ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi:

- homilador ayol, uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayol yoki uch yoshga to‘lmagan bolani yolg‘iz o‘zi tarbiyalayotgan ota (vasiy);
- zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish uchun yuborilgan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslar;
- o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar;
- ishga qaytadan qabul qilingan taqdirda **“Ish beruvchi”** ilgari qaysi xodimlar bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bo‘yicha bekor qilgan bo‘lsa, o‘sha shaxslar;
 - o‘zi bilan 6 oygacha muddatga mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar;
 - jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida va **“Ish beruvchi”** ning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xodimlar.

2.17 **“Ish beruvchi” “Xodim”** dan agar Mehnat kodeksida va boshqa qonunda boshqacha qoidalar belgilanmagan bo‘lsa, mehnat shartnomasida shart qilib ko‘rsatilmagan ishni bajarishni; qonunga xilof bo‘lgan, **“Xodim”** ning yoki boshqa shaxslarning huquqlarini buzadigan, hayoti va sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yadigan, ularning sha’ni, qadr-qimmatini hamda ishchanlik obro‘sigacha putur yetkazadigan harakatlarni amalga oshirishni talab qilishga haqli emas.

2.18 Mehnat shartlari mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, shuningdek mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvida belgilanadi.

Mehnat shartlarini o‘zgartirish, ular qaysi tartibda belgilangan bo‘lsa, xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Agar texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ishlar hajmlarining qisqarganligi munosabati bilan avvalgi mehnat shartlari saqlab qolinishi mumkin bo'lmasa, **“Ish beruvchi”** **“Xodim”** mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan mehnat vazifasini davom ettirayotganida **“Xodim”** ning roziligisiz mehnat shartlarini o'zgartirishga haqli.

Agar mehnat qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, **“Ish beruvchi”** mehnat shartlarining kelgusidagi o'zgarishi haqida **“Xodim”** ni kamida ikki oy oldin yozma shaklda, imzo qo'ydirib ogohlantirishi shart.

Ko'rsatilgan muddatni qisqartirishga faqat **“Xodim”** va **“Ish beruvchi”** o'rtasidagi kelishuvga ko'ra yo'l qo'yiladi.

“Ish beruvchi” mehnat shartlarining kelgusidagi o'zgarishi to'g'risida **“Xodim”** ni ogohlantirishning ikki haftadan ortiq bo'lgan muddatini mutanosib pulli kompensatsiya bilan almashtirishga haqli.

Bunda **“Xodim”**ni ogohlantirish paytidan e'tiboran ikki haftalik ogohlantirish muddati faqat **“Xodim”** ning roziligi bilan pulli kompensatsiya bilan almashtirilishi mumkin.

Agar ogohlantirish muddati tugagach **“Xodim”** yangi mehnat shartlarida mehnat qilishni rad etsa, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi **“Xodim”** yangi mehnat shartlarida ishni davom ettirishni rad etganligi munosabati bilan unga mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan ishdan bo'shatish nafaqasi to'langan va kafolatlar taqdim etilgan holda bekor qilinishi mumkin.

2.19 Mehnat to'g'risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, shuningdek mehnat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda **“Xodim”** mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan mehnat vazifasiga ko'ra ishni davom ettirayotganda **“Ish beruvchi”** dan mehnat shartlarini o'zgartirishni talab qilishga haqlidir.

“Xodim” ning mehnat shartlarini o'zgartirish haqidagi arizasi u berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay **“Ish beruvchi”** tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

“Xodim” ning mehnat shartlarini o'zgartirish haqidagi talablarini qanoatlantirish rad etilgan taqdirda, **“Ish beruvchi”** unga rad etishning sababi to'g'risida yozma shaklda xabar qilishi kerak. **“Xodim”** ga uning talablarini qanoatlantirishni rad etish sabablarini xabar qilmaslik uning mehnat shartlarini o'zgartirish rad etilganligi ustidan shikoyat qilishi uchun monelik qilmaydi.

2.20 **“Xodim”** ni boshqa ishga doimiy o'tkazishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

2.21 Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra **“Xodim”** boshqa ishga bir yil muddatgacha vaqtincha o'tkazilishi mumkin, bunday o'tkazish qonunga muvofiq o'zining ish joyi saqlanib qolinadigan vaqtincha yo'q bo'lgan **“Xodim”** ning o'rmini egallash uchun amalga oshirilayotgan taqdirda ushbu **“Xodim”** ishga chiqquniga qadar o'tkazilishi mumkin.

2.22 **“Xodim”** sog'lig'i holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan, vaqtinchalik yoki muddatsiz kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilganda shunday ishga o'tkazilgan kundan e'tiboran 2 hafta mobaynida uning avvalgi o'rtacha ish haqi saqlanadi.

2.23 Mehnatda mayib bo'lganligi yoki ish bilan bog'liq holda sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi munosabati bilan vaqtincha kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilgan **“Xodim”** larga ularning sog'lig'i shikastlanganligi uchun javobgar bo'lgan **“Ish beruvchi”** avvalgi ish haqi bilan yangi ishda oladigan ish haqi o'rtasidagi farqni to'laydi. Bunday farq mehnat qobiliyati tiklanguniga qadar yoki nogironlik belgilanguniga qadar to'lanadi.

2.24 **“Ish beruvchi”** homilador ayolning yoki 2 yoshga to'lmagan bolasi bor ayolning arizasiga ko'ra uning yengilroq ishga yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan ishga o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda o'tkazish to'g'risidagi, homilador ayolga - tibbiy xulosada ko'rsatilgan muddatga, bolali ayolga esa bola 2 yoshga to'lgunga qadar iltimosini qondirishi shart.

2.25 Ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan **“Xodim”** ni mehnat shartnomasida shart qilib ko‘rsatilmagan boshqa ishga uning roziligisiz, **“Ish beruvchi”** ning tashabbusiga ko‘ra vaqtincha o‘tkazishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda **“Xodim”** sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra qarshi ko‘rsatma bo‘lgan boshqa ishga o‘tkazilishi mumkin emas. Ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan **“Xodim”** vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilgan davrda xodimning mehnatiga haq to‘lash bajarayotgan ishga qarab, biroq avvalgi o‘rtacha oylik ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda amalga oshiriladi.

Ishda bekor turib qolishning oldini olish yoki bartaraf etish, vaqtincha yo‘q bo‘lgan **“Xodim”** ning o‘rniga ishlab turish, ishlab chiqarish avariya va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish, favqulodda holat yoki favqulodda vaziyatda bajariladigan yoki tabiiy, texnogen va ekologik tushadagi (yong‘in, suv toshqini, zilzila, epidemiya, epizootiya va boshqa) halokat oqibatlarining oldini olish va (yoki) ularni bartaraf etish maqsadida, shuningdek butun aholi yoki uning bir qismi hayoti yoki normal yashash sharoitlariga tahdid soluvchi boshqa hollarda amalga oshiriladigan kechiktirib bo‘lmaydigan kutilmagan ishlarni bajarish zarurati ishlab chiqarish zaruriyatidir.

Ishni iqtisodiy, texnologik, tashkiliy sabablarga, boshqa ishlab chiqarishga doir yoki tabiiy xususiyatga ega bo‘lgan sabablarga ko‘ra vaqtincha to‘xtatib turish bekor turib qolishdir.

Ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan **“Xodim”** ni boshqa ishga o‘tkazish davrlari bir kalendar yil davomida jami oltmish kalendar kundan oshishi mumkin emas.

2.26 Mehnat shartnomasini o‘zgartirish **“Ish beruvchi”** ning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

“Xodim” ni doimiy boshqa ishga o‘tkazish to‘g‘risida, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini o‘zgartirish haqida, mehnat shartnomasida shart qilib ko‘rsatilgan ish joyini o‘zgartirish to‘g‘risida, shuningdek **“Ish beruvchi”** ning boshqa joyga ko‘chishi munosabati bilan joyini o‘zgartirish haqida buyruqlar chiqarish uchun mehnat shartnomasiga kiritilgan o‘zgartirishlar asos bo‘ladi. Mehnat shartnomasiga doir o‘zgartirishlar xodim va **“Ish beruvchi”** tomonidan yozma shaklda tuziladigan hamda mehnat shartnomasining ajralmas qismi bo‘lgan qo‘shimcha kelishuv imzolash orqali rasmiylashtiriladi.

Mehnat shartnomasiga doir qo‘shimcha kelishuv kamida ikki nusxada tuziladi. Qo‘shimcha kelishuvning har bir nusxasi **“Xodim”** ning va ishga qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxsning imzosi bilan mustahkamlanadi.

“Xodim” ni doimiy boshqa ishga o‘tkazish, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini o‘zgartirish, shuningdek mehnat shartnomasida shart qilib ko‘rsatilgan ish joyini o‘zgartirish to‘g‘risidagi buyruqlar mehnat shartnomasi taraflari tomonidan qo‘shimcha kelishuv tuzish orqali ushbu shartnomaga kiritilgan o‘zgartirishlarning mazmuniga aynan muvofiq ravishda chiqariladi va **“Xodim”**ga imzo qo‘ydirib e‘lon qilinadi.

“Xodim” ni vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish o‘tkazishning muddati ko‘rsatilgan holda buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko‘ra va **“Xodim”** ning tashabbusi bilan **“Xodim”** ni vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish to‘g‘risida buyruq chiqarish uchun **“Xodim”** ning yozma arizasi asos bo‘ladi.

“Xodim” sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra **“Xodim”** ni vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish, homilador ayolni, shuningdek ikki yoshga to‘lmagan bolasini parvarishlayotgan ota-onadan birini (vasiyni) ularning avvalgi ishni bajarish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish haqida buyruq chiqarish uchun ularning arizasi va tibbiy xulosa asos bo‘ladi.

“Ish beruvchi” ning tashabbusiga ko‘ra **“Xodim”** ni vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish to‘g‘risida buyruq chiqarish uchun ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish faktlarining mavjudligi asos bo‘ladi.

“Xodim”ni vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish mehnat shartnomasida aks ettirilmaydi.

2.27 **“Xodim”** ning roziligi bilan unga ish kunining (smenaning) belgilangan davomiyligi mobaynida xuddi o’sha **“Ish beruvchi”** da qo’shimcha haq evaziga mehnat shartnomasida shart qilib ko’rsatilgan asosiy ish bilan bir qatorda, asosiy ishidagi kabi aynan o’sha kasb (lavozim) bo’yicha yoki boshqa kasb (lavozim) bo’yicha ham qo’shimcha ishni bajarish topshirilishi mumkin.

“Xodim” ga topshirilayotgan qo’shimcha ish quyidagilar vositasida bajarilishi mumkin:

- **“Xodim”** mehnat shartnomasida shart qilib ko’rsatilgan asosiy ishga nisbatan boshqa kasb (lavozim) bo’yicha qo’shimcha ishni bajarayotgan hollarda bir necha kasbda (lavozimda) ishlash;
- **“Xodim”** asosiy ishidagi ayni o’sha kasb (lavozim) bo’yicha qo’shimcha ishni bajarayotgan hollarda xizmat ko’rsatish doiralarini kengaytirish yoki ishlar hajmini ko’paytirish;
- vaqtincha yo’q bo’lgan **“Xodim”** ning majburiyatlarini mehnat shartnomasida belgilangan, asosiy ishidagi ayni o’sha kasb (lavozim) yoki boshqa kasb (lavozim) bo’yicha ishdan ozod etilmagan holda bajarish (O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 116-moddasi).

2.28 **“Ish beruvchi”** quyidagi hollarda **“Xodim”**ni ishdan chetlashtirishi shart:

- qonunchilikka muvofiq vakolatli davlat organlarining talabiga ko’ra;
- alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta’siridan mastlik holatida ishga kelganida yoki ishda bo’lganida;
- mehnatni muhofaza qilish sohasida o’quvdan hamda bilim va ko’nikmalari tekshiruvdan o’tmaganda;
- majburiy tibbiy ko’rikdan o’tmaganda;
- **“Xodim”** tomonidan mehnat shartnomasida shart qilib ko’rsatilgan ishni bajarish uchun tibbiy xulosaga muvofiq qarshi ko’rsatmalar aniqlanganda;
- tibbiy xulosaga muvofiq sog’lig’ining holatiga ko’ra to’rt oygacha muddatga vaqtincha boshqa ishga o’tkazishga muhtoj bo’lgan xodimni o’tkazish rad etilganda yoki **“Ish beruvchi”** da ish mavjud emasligi munosabati bilan bunday **“Xodim”** ga tegishli ishni taklif etish mumkin bo’lmaganda;
- **“Xodim”** mehnat to’g’risidagi qonunchilikka yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalariga muvofiq foydalanilishi shart bo’lgan shaxsiy va (yoki) jamoaviy himoya vositalaridan foydalanmaganda.

“Xodim” karantinli va odam uchun xavfli bo’lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi tahdidi mavjud bo’lganda O’zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining qarori asosida qonunchilikda belgilangan tartibda joriy etiladigan profilaktik emlashdan o’tishni rad etgan taqdirda (sog’lig’ining holatiga ko’ra qarshi ko’rsatmalar mavjud bo’lmaganda) **“Ish beruvchi”** uni ishdan chetlashtirishga haqli.

Xizmat tekshiruvi o’tkazilgan taqdirda ham, agar muayyan **“Xodim”** ning ishda bo’lishi xizmat tekshiruvini o’tkazishga xalaqit beradi deb taxmin qilish uchun asosli sabablar mavjud bo’lsa, **“Ish beruvchi”** **“Xodim”** ni ishdan chetlashtirishga haqli.

“Ish beruvchi” **“Xodim”** ni ishdan chetlashtirish uchun asos bo’lgan holatlar bartaraf etilguniga qadar butun davrga uni ishdan chetlashtiradi.

2.29 Ishdan chetlatilish davrida **“Xodim”** ga ish haqi hisoblanmaydi, biroq quyidagilar bundan mustasno:

- o’z aybisiz mehnatni muhofaza qilish sohasidagi bilim va ko’nikmalarni o’qitish va sinovdan o’tkazmagan yoki majburiy tibbiy ko’rikdan o’tmagan **“Xodim”** ni ishdan chetlatish yoki **“Xodim”** ga shaxsiy va (yoki) jamoaviy himoya vositalari bilan **“Ish beruvchi”** tomonidan ta’minlanmagan bo’lsa, shuningdek, agar **“Xodim”** **“Ish beruvchi”** tomonidan unga nisbatan ichki tekshiruv o’tkazilganligi munosabati bilan ishdan chetlatilgan bo’lsa, **“Xodim”** ishdan chetlatilgan butun davr uchun o’rtacha ish haqini saqlab qoladi.

2.30 **“Xodim”** ni ishdan chetlatish **“Ish beruvchi”** ning buyrug’i bilan rasmiylashtiriladi, unda **“Xodim”** ni ishdan chetlatish uchun asos bo’lgan aniq sabab ko’rsatilishi va chetlatib turish amalga oshiriladigan muddat ko’rsatilishi lozim.

“Ish beruvchi” ning ishdan chetlatish to’g’risidagi buyrug’i ishdan chetlatilgan **“Xodim”** ga imzosi olingan holda ma’lumot uchun etkaziladi.

Ishdan chetlashtirilgan **“Xodim”** chetlashtirish muddati yoki chetlashtirish qaysi holatlar sababli amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha holatlar tamom bo‘ladigan muddat tugaganidan keyingi birinchi ish kunida ishga kirishishi shart.

2.31 Mehnat shartnomasi quyidagi sabablarga ko‘ra bekor qilinishi mumkin:

- 1) taraflarning kelishuviga ko‘ra;
- 2) mehnat shartnomasining muddati tugashi munosabati bilan;
- 3) **“Xodim”** ning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish;
- 4) **“Ish beruvchi”** ning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish;
- 5) **“Xodim”** tashkilotning mulkdori almashganligi, uning qayta tashkil etilganligi, idoraviy taalluqliligi (bo‘ysunuvi) o‘zgarganligi munosabati bilan ishni davom ettirishni rad etganligi munosabati bilan;
- 6) **“Xodim”** yangi mehnat shartlari asosida ishlashni davom ettirishni rad etishi;
- 7) **“Xodim”** **“Ish beruvchi”** bilan birga ishlash uchun boshqa joyga ko‘chishni rad etishi;
- 8) **“Xodim”** sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra tibbiy xulosaga muvofiq sog‘lig‘ining holati bo‘yicha o‘ziga qarshi ko‘rsatma mavjud bo‘lmagan boshqa ishga o‘tishni rad etganligi yoki **“Ish beruvchi”** da tegishli ish mavjud emasligi munosabati bilan;
- 9) taraflarning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlar;
- 10) yangi muddatga saylanmaganlik yoki tanlovdan o‘tmaganlik yoxud saylovda, tanlovda ishtirok etishni rad etish;
- 11) mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda yoki boshqa qonunlar alohida toifadagi **“Xodimlar”** bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida mehnatga oid munosabatlarni tugatishning qo‘shimcha asoslari to‘g‘risidagi shartni nazarda tutish imkoniyatini mustahkamlaydigan hollarda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslar.

Mehnat shartnomasi mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan o‘zga asoslar bo‘yicha ham bekor qilinishi mumkin.

2.32 Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslardan tashqari tashkilot rahbari, uning o‘rinbosarlari, tashkilot bosh buxgalteri, tashkilot alohida bo‘linmasi rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- 1) tashkilot mulkdori o‘zgarganligi munosabati bilan **“Ish beruvchi”** ning tashabbusiga ko‘ra. Mehnat shartnomasini shu asosga ko‘ra bekor qilishga tashkilot mulk qilib olingan kundan e‘tiboran uch oy ichida yo‘l qo‘yiladi. Mazkur muddatga **“Xodim”** ning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi davrlari, uning mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan ta‘tillarda bo‘lganligi vaqti, boshqa uzrli sabablarga ko‘ra ishda bo‘lmagan davrlari kiritilmaydi;
- 2) mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra.

Quyidagilar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi **“Ish beruvchi”** ning tashabbusiga ko‘ra bekor qilinganda **“Kasaba uyushmasi qo‘mitasi”** ning roziligini olish talab qilinmaydi:

- mehnat to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilgan asoslardan istalgan biriga ko‘ra tashkilot rahbari, shuningdek alohida bo‘linma rahbari bilan;
- mehnat to‘g‘risidagi qonunchiligiga ko‘ra tashkilot rahbari, uning o‘rinbosarlari, tashkilot bosh buxgalteri, alohida bo‘linma rahbari bilan.

Tashkilot rahbari o‘z tashabbusiga ko‘ra nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek muddati tugashidan oldin muddatli mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli bo‘lib, bu haqda **“Ish beruvchi”**ni ikki oy oldin yozma shaklda ogohlantirishi kerak.

Rahbarning o‘rinbosarlari, tashkilot bosh buxgalteri, alohida bo‘linmalar rahbarlari o‘z tashabbusiga ko‘ra nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek muddati tugashidan oldin muddatli mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli bo‘lib, bu haqda **“Ish beruvchi”** ni bir oy oldin yozma shaklda ogohlantirishi kerak.

2.33 **“Xodim”** nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek muddati tugaguniga qadar muddatli mehnat shartnomasini o‘n to‘rt kalendar kun oldin bu haqda **“Ish beruvchi”** ni yozma shaklda ogohlantirgan holda bekor qilishga haqli.

“**Xodim**” va “**Ish beruvchi**” o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra mehnat shartnomasi ogohlantirish muddati tugashiga qadar bekor qilinishi mumkin.

2.34 “**Xodim**” ning taqdim etilgan arizasi “**Jamiyat**” tomonidan belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak. Ogohlantirish muddatining o‘tishi “**Ish beruvchi**” tomonidan “**Xodim**” ning mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi arizasi olinganidan so‘ng keyingi kunda boshlanadi.

2.35 Mehnat shartnomasini “**Xodim**” ning tashabbusiga ko‘ra bekor qilish to‘g‘risidagi ariza u o‘z ishini davom ettirishi mumkin emasligi (ta‘lim tashkilotiga qabul qilinganligi, pensiyaga chiqqanligi, saylab qo‘yiladigan lavozimga saylanganligi va boshqa hollarda) bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda “**Ish beruvchi**” mehnat shartnomasini “**Xodim**” iltimos qilayotgan muddatda bekor qilishi kerak.

2.36 Mehnat shartnomasi “**Xodim**” ning tashabbusi bilan uning kasalligi, nogironligi, yoshga doir pensiyaga chiqishi, oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurti yoki tayanch doktoranturaga yoki doktoranturaga qabul qilinishi va qonunchilikka ko‘ra muayyan imtiyozlar va afzalliklar beriladigan boshqa sabablar tufayli bekor qilinganda mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi buyruqda shu sabablar ko‘rsatiladi.

2.37 Qonunchilikda nazarda tutilgan yoki taraflar kelishuvi bo‘yicha belgilangan ogohlantirish muddati davomida “**Xodim**” bergan arizani qaytarib olishga haqlidir.

2.38 Agar ogohlantirish muddati tugagandan keyin xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinmagan va yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar davom etayotgan bo‘lsa, mehnat shartnomasini “**Xodim**”ning tashabbusiga ko‘ra bekor qilish haqidagi ariza o‘z kuchini yo‘qotadi, mehnat shartnomasini bekor qilishga esa yo‘l qo‘yilmaydi.

2.39 “**Xodim**” va “**Ish beruvchi**” o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra qisqartirilgan ogohlantirish muddati tugaganidan keyin “**Xodim**” ishni tugatishga haqli, “**Ish beruvchi**” esa “**Xodim**” ga mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi buyruqning ko‘chirma nusxasini, mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko‘chirmani berishi hamda u bilan hisob-kitobni amalga oshirishi shart.

2.40 Muddatli mehnat shartnomasi uning amal qilish muddati tugashi bilan bekor qilinadi.

Mehnat shartnomasini uning amal qilish muddati tugaganligi munosabati bilan bekor qilish to‘g‘risida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni ushbu asos bo‘yicha tugatishga qaror qilgan taraf boshqa tarafni mehnat shartnomasi bekor qilinguniga qadar kamida uch kalendar kun oldin yozma shaklda ogohlantirishi kerak, bundan ish joyi (lavozimi) saqlanayotgan “**Xodim**” yo‘q bo‘lgan davrga tuzilgan muddatli mehnat shartnomasining amal qilish muddati tugaydigan hollar mustasno.

Ish joyi (lavozimi) saqlanayotgan “**Xodim**” ning yo‘q bo‘lgan vaqtiga tuzilgan mehnat shartnomasi ushbu “**Xodim**” ishga qaytgan kundan e‘tiboran bekor qilinadi.

Agar mehnat shartnomasining muddati tugaganidan keyin yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar davom etsa va taraflardan birortasi ham mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda bir hafta davomida ularning tugatilishini talab qilmagan bo‘lsa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.

Ayolning homiladorligi davrida muddatli mehnat shartnomasining muddati tugagan taqdirda, “**Ish beruvchi**” ayolning yozma arizasiga binoan va homiladorlik holatini tasdiqlovchi tibbiy ma‘lumotnoma taqdim etilgan taqdirda, mehnat shartnomasining amal qilish muddatini homiladorlik tugaguniga qadar, unga homiladorlik va tug‘ish ta‘tili berilgan taqdirda esa bunday ta‘tilning oxiriga qadar uzaytirishi shart. Mehnat shartnomasi homiladorlikning oxiriga qadar uzaytirilgan ayol, “**Ish beruvchi**” ning so‘roviga binoan, lekin uch oyda ko‘pi bilan bir marta homiladorlik holatini tasdiqlovchi tibbiy ma‘lumotnoma taqdim etishi shart.. Agar bunda ayol homiladorlik tugaganidan keyin haqiqatda ishlashni davom ettirsa, “**Ish beruvchi**” homiladorlikning tugaganligi faktini bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan kundan e‘tiboran bir hafta ichida “**Ish beruvchi**” mehnat shartnomasini uning muddati tugaganligi sababli bekor qilishga haqli.

Ayol bilan tuzilgan mehnat shartnomasining muddati tugaganligi munosabati bilan ushbu shartnomani uning homiladorligi davrida bekor qilishga, agar mehnat shartnomasi yo‘q bo‘lgan **“Xodim”** ning majburiyatlarini bajarish vaqtiga tuzilgan bo‘lsa va homiladorlik tugaguniga qadar ayolni **“Ish beruvchi”** da uning sog‘lig‘i holati inobatga olingan holda bajara oladigan boshqa ishga ayolning yozma roziligi bilan o‘tkazish mumkin bo‘lmasa, yo‘l qo‘yiladi.

Homilador ayol bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ayolning mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda ko‘rsatilgan davr uchun homiladorlik va tug‘ish nafaqasini olish huquqi saqlanib qoladi.

Uch yoshgacha bolasi bor ayol yoki uch yoshgacha bo‘lgan bolani yolg‘iz tarbiyalayotgan ota (vasiy) bilan mehnat shartnomasini **“Ish beruvchi”** ning tashabbusiga ko‘ra bekor qilishga faqat Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismining 1, 4 va 5-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha yo‘l qo‘yiladi.

Uch yoshgacha bolasi bor ayol yoki uch yoshgacha bo‘lgan bolani yolg‘iz tarbiyalayotgan ota (vasiy) bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda, ularning bola parvarishlash nafaqasini olish huquqi saqlanib qoladi.

2.41 Nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek muddati tugaguniga qadar muddatli mehnat shartnomasini **“Ish beruvchi”** ning tashabbusiga ko‘ra bekor qilish quyidagi hollarda ruxsat etiladi:

- tashkilot (uning alohida bo‘linmasi) o‘z muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta‘sis hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qarori bilan tugatilganligi yoki yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan faoliyatning tugatilganligi;
- texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o‘zgarishi, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilot (uning alohida bo‘linmasi), yakka tartibdagi tadbirkor xodimlari sonining yoki shtatining o‘zgarganligi;
- **“Xodim”** ning malakasi yetarli bo‘lmaganligi sababli egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishga muvofiq emasligi;
- **“Xodim”** ning o‘z mehnat majburiyatlarini muntazam ravishda buzganligi.

Avval mehnat majburiyatlarini buzganligi uchun **“Xodim”** intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan yoki unga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan ta‘sir choralari qo‘llanilgan kundan e‘tiboran bir yil ichida **“Xodim”** tomonidan takroran intizomiy nojo‘ya harakat sodir etilganligi mehnat majburiyatlarini muntazam ravishda buzishdir;

- **“Xodim”** ning o‘z mehnat majburiyatlarini bir marta qo‘pol ravishda buzganligi.
- Mehnat Kodeksida va boshqa qonunlarda belgilangan o‘zga sabablar (asoslar).

Mehnat shartnomasini **“Xodim”** ning aybli harakatlari (harakatsizligi) uchun bekor qilish intizomiy jazo chorasi bo‘lib, u Mehnat Kodeksida belgilangan intizomiy jazolarni qo‘llash tartibi va muddatlariga rioya etilgan holda amalga oshirilishi kerak.

Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalarining, shuningdek davlat grantlari bo‘yicha ta‘lim olgan oliy ta‘lim tashkilotlarining tegishli ta‘lim muassasasini tamomlagan kundan e‘tiboran uch yil ichida birinchi bor ishga kirgan bitiruvchilari bilan mehnat shartnomasi ushbu mehnat shartnomasi tuzilgan kundan e‘tiboran uch yillik muddat o‘tguniga qadar **“Ish beruvchi”** ning tashabbusiga ko‘ra bekor qilinganida **“Ish beruvchi”** bu haqda mahalliy mehnat organiga yozma shaklda xabar qilishi kerak.

2.42 Ushbu Qoidalarining 2.42-bandida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha mehnat shartnomasini bekor qilishga, korxonaga tugatilgan hollar bundan mustasno, o‘rindoshlik asosida ishlaydigan ishchilar bilan mehnat shartnomasini **“Kasaba uyushmasi qo‘mitasi”** ning oldindan rozilgisiz bekor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.43 Ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra Mehnat shartnomasini bekor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi:

- Mehnat kodeksida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilmagan asoslar bo‘yicha;
- Mehnat kodeksining mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash talabini buzadiganda;
- **“Xodim”** ning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davrlarida, u mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ta‘tillarda bo‘lgan davrlarda;
- **“Xodim”** davlat yoki jamoat majburiyatlarini bajarganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan davrda;
- **“Xodim”** xizmat safarida bo‘lgan davrda;

- homilador ayollar (Mehnat kodeksining 408-moddasi) va uch yoshgacha bolasi bo'lgan xodimlar (Mehnat kodeksining 409-moddasi) uchun kafolatlar berishni nazarda tutadigan talablarga rioya qilmasdan.
- homilador ayollar (Mehnat kodeksining 408-moddasi) va uch yoshgacha bolasi bo'lgan xodimlar (Mehnat kodeksining 409-moddasi) uchun kafolatlar berishni nazarda tutadigan talablarga rioya qilmasdan.

Mehnat shartnomasini **“Ish beruvchi”** ning tashabbusiga ko'ra bekor qilish uchun ushbu modda birinchi qismining 3-6-bandlarida nazarda tutilgan cheklolar tashkilot (uning alohida bo'linmasi) o'z muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta'sis hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga binoan tugatilganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda yoxud yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan faoliyat tugatilganda qo'llanilmaydi.

2.44 18 yoshgacha bo'lgan **“Xodimlar”** bilan **“Ish beruvchi”** o'z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda mahalliy mehnat organining roziligini olishi shart.

2.45 **“Ish beruvchi”** o'zining mehnat shartnomasini bekor qilish niyati haqida xodimni quyidagi muddatlarda yozma shaklda (imzo qo'ydirib) ogohlantirishi shart:

1) mehnat shartnomasi:

- tashkilot (uning alohida bo'linmasi) o'z muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta'sis hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga binoan tugatilganligi;
- texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishiga, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarishiga bog'liq bo'lgan tashkilot **“Xodimlar”** ining soni yoki shtati o'zgarganligi;
- tashkilot rahbariga, uning o'rinbosarlariga, bosh buxgaltyerga va tashkilotning alohida bo'linmasi rahbariga nisbatan tashkilot mulkdorining o'zgarganligi munosabati bilan bekor qilinganda kamida ikki oy oldin;

2) mehnat shartnomasi **“Xodim”** ning malakasi yetarli bo'lmaganligi tufayli bajarayotgan ishga muvofiq emasligi munosabati bilan bekor qilinganda kamida ikki hafta oldin;

3) mehnat shartnomasi **“Xodim”** ning aybli harakatlari (harakatsizligi) munosabati bilan bekor qilinganda kamida uch kun oldin.

“Xodim” ni mehnat shartnomasini **“Ish beruvchi”** ning tashabbusiga ko'ra kelgusida bekor qilish to'g'risida ogohlantirishning ushbu Qoidalarning 2.43-bandida nazarda tutilgan muddatlari barcha hollarda qo'llaniladi, bundan Mehnat kodeksida ayrim toifadagi **“Xodimlar”** ga nisbatan boshqa ogohlantirish muddatlari belgilangan hollar mustasno.

“Ish beruvchi” 2.43- bandida nazarda tutilgan **“Xodim”** ni ogohlantirish muddatlarini ogohlantirish muddatining davomiyligiga muvofiq keladigan pulli kompensatsiya bilan almashtirishga haqlidir. **“Xodim”** ga ogohlantirish muddatiga mutanosib pulli kompensatsiya to'lash **“Ish beruvchi”** ni qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni **“Xodim”** ga amalga oshirish majburiyatidan, shuningdek **“Xodim”** o'zga to'lovlarni, agar ular mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda yoki mehnat shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa, amalga oshirishdan ozod etmaydi.

“Xodim” ni ogohlantirish muddati ichida, bundan mehnatga oid munosabatlarni uning aybli harakatlari (harakatsizligi) munosabati bilan tugatish to'g'risidagi ogohlantirish mustasno, **“Xodim”** ga boshqa ish qidirish uchun haftada kamida bir kun shu vaqt uchun ish haqi saqlangan holda ishga chiqmaslik huquqi beriladi.

“Xodim” ni ogohlantirish muddatiga **“Xodim”** ning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davrlari, shuningdek uning davlat yoki jamoat majburiyatlarini bajargan vaqti kiritilmaydi, bundan mehnatga oid munosabatlarning tashkilot (uning alohida bo'linmasi) tugatilganligi munosabati bilan tugatilishi mustasno.

2.46 Mehnat shartnomasini taraflarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra bekor qilish asoslari quyidagilardan iborat:

- **“Xodim”** ning harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilganligi;
- shu ishni ilgari bajarib kelgan **“Xodim”**ning avvalgi ishga tiklanganligi;
- **“Xodim”** sudning qaysi hukmi bilan avvalgi ishini davom ettirish imkoniyatini istisno etadigan jazoga hukm qilingan bo'lsa, o'sha sud hukmining qonuniy kuchga kirganligi, shuningdek sudning qaroriga binoan **“Xodim”** ning ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasasiga yuborilganligi;

- agar yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarlikni bartaraf etish imkoni bo‘lmasa va u ishni davom ettirishga to‘sqinlik qilsa, ishga qabul qilishga doir belgilangan qoidalarning buzilganligi;
- qonunchilikka muvofiq mehnatga oid munosabatlarni davom ettirishga monelik qiladigan holatlar yuzaga kelganligi (**“Xodim”** ning belgilangan tartibda berilgan tibbiy xulosaga muvofiq mehnat faoliyatiga to‘liq qobiliyatsiz deb e‘tirof etilganligi, shuningdek davlat sirlaridan foydalanish huquqi bekor qilinganligi, agar bajarilayotgan ish shunday foydalanish huquqini talab qilsa, muayyan ishni bajarishga doir ruxsatnomadan yoki litsenziyadan mahrum etilganligi va boshqalar);
- tashkilotni tugatish yoki **“Ish beruvchi”** bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini tugatish to‘g‘risidagi sud qarorining qonuniy kuchga kirganligi;
- **“Xodim”** ni ishga tiklash haqidagi sud qarori bekor qilinganligi yoki O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasining qarori bekor qilinganligi (qonunga xilof deb e‘tirof etilganligi);
- **“Xodim”** vafot etganligi, shuningdek sud tomonidan **“Xodim”**ning bedarak yo‘qolgan deb e‘tirof etilganligi yoki vafot etgan deb e‘lon qilinganligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida doimiy asosda ishlagan Senat a‘zosining vakolatlari muddati tugaganligi yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborilganligi munosabati bilan avvalgi lavozimiga (ishiga) qaytganligi;
- qonunda nazarda tutilgan boshqa hollar.

2.47 Barcha hollarda mehnat shartnomasini bekor qilish buyruq bilan rasmiylashtiriladi. Oxirgi ish kuni mehnat shartnomasi bekor qilingan kundir. Xuddi shu kuni mehnat shartnomasini bekor qilish uchun asos bo‘lgan Mehnat kodeksi tegishli bandi va moddasiga yoki boshqa normativ hujjatlarga havola qilingan holda **“Ish beruvchi”** xodimga mehnat daftarchasini va mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi buyruqning nusxasini berishi shart.

Mehnat daftarchasida mehnat shartnomasini bekor qilish sanasi, uni bekor qilish to‘g‘risidagi buyruqning raqami va sanasi ko‘rsatiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish uchun asoslar ko‘rsatilmaydi.

2.48 **“Ish beruvchi”** ning tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda **“Xodim”** ga tegishli pul hisob-kitobi:

- mehnat shartnomasi bekor qilingan kunga qadar ishlayotgan **“Xodim”** ga - mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni;
- mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni ishlamayotgan **“Xodim”** ga - u hisob-kitob qilishni talab etgan kuni to‘lanishi kerak.

Mehnat shartnomasi **“Xodim”** ning tashabbusi bilan bekor qilinganda unga tegishli pul hisob-kitobi:

- qonun bo‘yicha yoki shartnomaga muvofiq mehnat shartnomasini bekor qilish haqida **“Ish beruvchi”** ni ogohlantirishi shart bo‘lgan **“Xodim”** ga - ogohlantirishiga ko‘ra u ishni tashlab ketishga haqli bo‘lgan kundan kechiktirmasdan;

- mehnat shartnomasini bekor qilishi haqida **“Ish beruvchi”** ni ogohlantirishi shart bo‘lmagan **“Xodim”** ga - ishdan ketgan kunining ertasidan kechiktirmasdan to‘lanishi lozim.

2.49 **“Xodim”** ga to‘lanadigan pul hisob-kitobi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- barcha ish kunlari, shu jumladan mehnat shartnomasi bekor qilingan kun uchun ish haqi;
- foydalanilmagan yillik ta‘til uchun kompensatsiya, agar mehnat shartnomasi bekor qilingan kunida mavjud bo‘lsa;
- mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida ogohlantirish muddati o‘rniga uning muddatiga mutanosib ravishda kompensatsiya, shuningdek, **“Ish beruvchi”** **“Xodim”** ni aybli harakatlari uchun u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi to‘g‘risida xabardor qilishi shart bo‘lgan muddat evaziga;
- **“Ish beruvchi”** ning tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda o‘rtacha oylik ish haqi miqdorida ishdan bo‘shatish nafaqasi;
- **“Xodim”** ga o‘z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan to‘lanadigan boshqa to‘lovlar.

3. ISH BERUVCHINING ASOSIY MAJBURIYATLARI

“Ish beruvchi” ning majburiyatlari:

- mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomalari shartlariga rioya etish;
- “Xodimlar” ni mehnat shartnomasida shartlashilgan ish bilan ta‘minlash;
- “Xodimlar” ni ishga qabul qilishda, mehnat jarayonida va “Xodim” bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda Mehnat kodeksining mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash to‘g‘risidagi talablari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- majburiy mehnat va bolalar mehnatining og‘ir shakllari qo‘llanilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- mehnatni muhofaza qilish normativ talablariga muvofiq bo‘lgan mehnat xavfsizligini va shart-sharoitlarini ta‘minlash;
- “Xodimlar” ni o‘z mehnat majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, asboblari, texnik hujjatlar va boshqa vositalar bilan ta‘minlash;
- “Xodimlar” ni o‘z mehnat majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, asboblari, texnik hujjatlar va boshqa vositalar bilan ta‘minlash;
- “Xodimlar” ga berilishi lozim bo‘lgan ish haqini Mehnat Kodeksiga, jamoa shartnomasiga, ichki mehnat tartibi qoidalari, boshqa ichki hujjatlarga, mehnat shartnomalariga muvofiq belgilangan muddatlarda to‘liq hajmda to‘lash;
- ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda jamoa muzokaralarini olib borish, shuningdek jamoa shartnomasini tuzish;
- “Xodimlar” ning vakillariga jamoa kelishuvini va jamoa shartnomasini tuzish hamda ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan to‘liq va ishonchli axborotni taqdim etish;
- “Xodimlar” ni ularning birlashish huquqi to‘g‘risida xabardor qilish;
- “Xodimlar” ni o‘z mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, qabul qilinayotgan ichki hujjatlar bilan imzo qo‘ydirib tanishtirish;
- davlat mehnat inspektorlarining, shuningdek mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga rioya etilishi ustidan tekshiruv va nazoratni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan boshqa davlat organlari mansabdor shaxslarining ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarish;
- “Xodimlar” davlat organlaridagi saylab qo‘yiladigan lavozimlarga saylanganligi tufayli ularning ish joyi saqlanib qolgan hollarda ushbu “Ish beruvchi” ilgari mehnat shartnomasini bekor qilgan xodimlarni ishga qabul qilish;
- tegishli kasaba uyushmasi organlarining, “Xodimlar” tomonidan saylangan boshqa vakillarning mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikning va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarning aniqlangan qoidabuzarliklari haqidagi ko‘rsatmalarini hamda taqdimnomalarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish, aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rish va ko‘rilgan choralar to‘g‘risida mazkur organlar hamda vakillarga xabar qilish;
- “Xodimlar” ning o‘z mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan maishiy ehtiyojlari ta‘minlanishini amalga oshirish;
- “Xodimlar” ning ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasini, shuningdek “Ish beruvchi” ning fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtasini ta‘minlash;
- o‘z mehnat majburiyatlarini bajarganligi munosabati bilan “Xodimlar” ga yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda hamda shartlarda qoplash;
- mehnat shartnomalarini, shuningdek ularga doir o‘zgartirish va qo‘shimchalarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat majmuida o‘z vaqtida ro‘yxatga olish.

4. XODIMNING ASOSIY MAJBURIYATLARI.

4.1 “Xodim” ning majburiyatlari:

- mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomalari shartlariga rioya etish;
- mehnat shartnomasi bilan o‘z zimmasiga yuklatilgan mehnat majburiyatlarini vijdonan bajarish;
- ichki mehnat tartibiga rioya etish;
- mehnat intizomiga rioya etish;
- belgilangan mehnat normalarini bajarish;

- mehnatni muhofaza qilish talablariga, texnologiya intizomiga, mehnat xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalariga rioya etish;
- **“Ish beruvchi”** ning mol-mulkiga (shu jumladan uchinchi shaxslarning **“Ish beruvchi”** da turgan mol-mulkiga, agar **“Ish beruvchi”** ushbu mol-mulkning but saqlanishi uchun javobgar bo‘lsa) nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- **“Ish beruvchi”** ga yetkazilgan moddiy zararining o‘rmini Mehnat kodeksida belgilangan tartibda va doirada qoplashi;
- insonlarning hayoti va sog‘lig‘iga, **“Ish beruvchi”** ning mol-mulki (shu jumladan uchinchi shaxslarning **“Ish beruvchi”** da bo‘lgan mol-mulkiga, agar **“Ish beruvchi”** ushbu mol-mulkning but saqlanishi uchun javobgar bo‘lsa) but saqlanishiga tahdid soladigan vaziyat yuzaga kelganligi to‘g‘risida **“Ish beruvchi”** ga yoki bevosita rahbarga darhol xabar qilish;
- boshqa xodimlarning o‘z mehnat majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi harakatlarni sodir etmaslik;
- tegishli qoidalar va yo‘riqnomalarda nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi choralari, ishlab chiqarish sanitariyasi, mehnat gigienasi va yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilish, berilgan maxsus kiyimda, maxsus poyabzalda ishlash va zarur shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish;
- ish joyini, asbob-uskunalar va jihozlarini saqlash va ularni tartibli, toza va yaxshi holatda smena bilan almashayotgan **“Xodim”** ga topshirish, shuningdek, bo‘linmada va **“Jamiyat”** hududida tozalikni saqlash, moddiy boyliklarni va hujjatlarni saqlashning belgilangan tartibiga rioya qilish;
- mashinalar, dastgohlar va boshqa jihozlardan unumli foydalanish, asbob-uskunalar, o‘lchash asboblari, maxsus kiyimlar va boshqa buyumlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya va boshqa moddiy resurslardan tejamkor va oqilona foydalanish;
- bilimlarning nazariy va amaliy darajasini tizimli ravishda oshirish, mutaxassislik bo‘yicha amaliy ish ko‘nikmalarini takomillashtirish;
- mehnat unumdorligini oshirish, buyurtma va topshiriqlar, ishlab chiqarish me‘yorlari va me‘yorlashtirilgan topshiriqlar bo‘yicha ishlarni o‘z vaqtida va puxta bajarish, ushbu me‘yorlarni oshirib bajarishga erishish;
- ish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish, ishda kamchilik va nuqsonlarga yo‘l qo‘ymaslik, texnologik intizomni saqlash;
- **“Ish beruvchi”** ga ishga kirishishda so‘ralgan ma‘lumotlarda sodir bo‘lgan barcha o‘zgarishlar, xususan, manzil, oilaviy ahvol va boshqalarning o‘zgarishi to‘g‘risida xabardor qilish;
- mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda, **“Xodim”** ga o‘z mehnat vazifalarini bajarish uchun berilgan barcha moddiy-texnik vositalar va hujjatlarni o‘z vaqtida topshirish; **“Jamiyat”** oldidagi qarzlari yo‘qligini tasdiqlash tegishli mansabdor shaxslar tomonidan imzolangan qarzi yo‘qlik varaqasi hisoblanadi (shakl ma‘muriyat tomonidan belgilanadi);
- 24 soat ichida har qanday aloqa vositalari orqali xodimlar rahbariyatiga ishda yo‘qligi to‘g‘risida xabar berishi, shundan so‘ng ish bilan band bo‘lgan shaxs noqonuniy ravishda yo‘q deb hisoblanadi, yengib bo‘lmas kuchlar holatlari bundan mustasno;
- ishning normal amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan yoki qiyinlashtiradigan sabablar va shartlarni darhol bartaraf etish choralari ko‘rish va sodir bo‘lgan holat to‘g‘risida **“Ish beruvchi”** ga yoki uning vakolatli shaxslariga darhol xabar berish;

4.2 Har bir **“Xodim”** o‘z mutaxassisligi, malakasi, lavozimi bo‘yicha bajaradigan vazifalar doirasi mehnat shartnomasi va (yoki) lavozim yo‘riqnomasi bilan belgilanadi.

5. ISH VAQTI

5.1 **“Xodim”** ichki mehnat tartib qoidalariga, smenalarga bo‘linib ishlash (ish) jadvallariga, boshqa Ichki hujjatlarga yoki mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq mehnat majburiyatlarini qaysi vaqt mobaynida bajarishi kerak bo‘lsa, o‘sha vaqt ish vaqtidir. (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasi).

5.2 **“Jamiyat”** ning smenadan tashqari ishda ishlaydigan **“Xodimlar”**i uchun 2 kun dam olish bilan 5 kunlik ish haftasi belgilanadi. Ishning boshlanish va tugash vaqtlari, dam olish va ovqatlanish uchun tanaffuslar Ichki mehnat tartibi qoidalariga bilan belgilanadi (1-ilova).

5.3 **“Jamiyat”** ning uzluksiz ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq ishlarda band bo‘lgan **“Xodimlar”**i **“Ish beruvchi”** tomonidan tasdiqlangan va **“Kasaba uyushmasi qo‘mitasi”** bilan kelishilgan ish vaqti balansiga muvofiq oylik ish vaqtiga rioya qilish bilan smena jadvali bo‘yicha ishlaydilar (1-ilova).

“**Xodimlar**” smenalar bo‘yicha bir me’yorda navbat almashadi.

“**Xodim**” ni surunkasiga 2 smena davomida ishga jalb etish taqiqlanadi.

Uzluksiz ishlaydigan bo‘linmalarda dam olish kunlari “**Xodimlar**” ga belgilangan smena jadvaliga muvofiq beriladi. Ishning tugashi va keyingi kuni (smenaning) boshlanishi o‘rtasidagi kunlik dam olishning davomiyligi o‘n ikki soatdan kam bo‘lmasligi kerak.

Ishga chiqish uchun kalendar jadvallari har oy yangi oy boshlanishidan 2-3 kun oldin “**Ish beruvchi**” tomonidan tuziladi va smenalar, guruhlar va xodimlarning familiyasi ko‘rsatilgan holda bo‘linmaning ko‘rinadigan joyiga joylashtiriladi.

“**Ish beruvchi**” yoki u tomonidan vakolat berilgan shaxslar “**Xodimlar**” ni (yozma ravishda, smena boshliqlari, ustalar orqali) ish jadvalidagi barcha o‘zgarishlar yoki bo‘linma uchun farmoyish bo‘yicha yangi jadvallar kiritilganligi to‘g‘risida darhol xabardor qilishlari shart.

5.4 Uzluksiz texnologik jarayonga ega bo‘linmalarda ishlaydigan smena “**Xodimlar**” iga dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus belgilanmaydi, ularga ish vaqtida maxsus ajratilgan joylarda ovqatlanish imkoniyati beriladi (***1-jadval***).

5.5 Uzluksiz ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan “**Xodim**” bilan smena almashayotgan “**Xodim**” kelguniga qadar ishni tark etishi taqiqlanadi. Agar smena almashayotgan kelmay qoldanda, “**Xodim**” bu haqda o‘zining bevosita rahbariga xabar beradi, ushbu rahbar darhol ishchini boshqa “**Xodim**” bilan almashtirish choralarini ko‘rishi shart.

5.6 Quyidagi “**Xodimlar**” uchun ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi belgilanadi:

- 15 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga:

olti kunlik ish haftasida - haftasiga 24 soat;

besh kunlik ish haftasida - haftasiga 25 soat;

- 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga:

olti kunlik ish haftasida - haftasiga 36 soat;

besh kunlik ish haftasida - haftasiga 37 soat 30 daqiqa;

- O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan davomiyligi mehnat sharoitlari o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda;

- I va II guruh nogironlari uchun - haftasiga 36 soatdan ko‘p bo‘lmagan.

5.7 Har kungi ishning (smenaning) davomiyligi 1 soatga qisqartiriladi:

- ishlanmaydigan bayram kunlari arafasida.

5.8 “**Jamiyat**” tomonidan belgilangan tartibda ish (smena) boshlanishidan oldin har bir “**Xodim**” o‘zining ishga kelganini, ish kunining oxirida esa ishdan (smenani) ketganini qayd etishi shart.

“**Ish beruvchi**” “**Xodimlar**” ning ishga kelishi va ishdan ketishini hisobga olinishini tashkil etishi shart.

Har kungi ishning o‘z vaqtida boshlanishi va tugashi nazorat punktidan o‘tish vaqti bilan emas, balki “**Xodim**” ning bevosita ish joyida mavjudligi bilan qayd etiladi. Ish vaqti boshlanishidan 10 daqiqa oldin “**Xodim**” ish joyida bo‘lishi shart. “**Xodimlar**” ning ish joylariga o‘z vaqtida (vaqtdan oldin) kelishini nazorat qilish bo‘linma boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

Ish vaqtida ish joyida har qanday bo‘lmaslik holatlari (ammo uch soatdan oshmagan holda), yengib bo‘lmas kuchlar holatlari bundan mustasno, ishdan ozod etish xatida faqat bevosita rahbarning oldindan ruxsati bilan ruxsat etiladi, unda quyidagilar: F.I.Sh, bo‘linmaning nomi, tabel raqami, ketish sababi, ishdan ozod bo‘lgan

sana va vaqti, bevosita rahbarning yoki uni o‘rnini bosuvchining, tabelchining imzosi ko‘rsatilishi lozim. Ishdan ozod etish xatini rasmiylashtirish tartibi **“Ish beruvchi”** ning buyruqi bilan belgilanadi.

5.9 **“Xodim”** ishda, shuningdek o‘z mehnat majburiyatlarini bajarishi kerak bo‘lgan boshqa joyda alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta‘siridan mastlik holatida paydo bo‘lgan **“Xodim”** ni **“Ish beruvchi”** ushbu ish kunida, smenada ishlashiga yo‘l qo‘ymaydi. Ishdan chetlashtirish buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

5.10 **“Ish beruvchi”** tomonidan **“Xodim”** ni **“Xodim”** uchun belgilangan ish vaqti davomiyligidan tashqari ishga jalb etish ish vaqtdan tashqari ish deb hisoblanadi.

“Ish beruvchi” tomonidan **“Xodim”**ni ish vaqtdan tashqari ishga jalb etishni uning yozma roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Ish vaqtdan tashqari ishning davomiyligi **“Xodim”** uchun surunkasiga 2 kun davomida 4 soatdan (mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda - bir kunda 2 soatdan) va yiliga 120 soatdan oshmasligi kerak.

“Ish beruvchi” tomonidan **“Xodim”** ni uning roziligisiz ish vaqtdan tashqari ishga jalb etishga quyidagi hollarda yo‘l qo‘yiladi:

- a) tabiiy yoki texnogen xususiyatga ega halokatlarning, ishlab chiqarishdagi avariyaalarning, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning, shuningdek yong‘inlarning, toshqinlarning, zilzilalarning, epidemiyalarning yoki epizootiyalarning oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish hamda aholining yoki uning bir qismining hayotiga yoki normal yashash sharoitlariga tahdid soladigan boshqa alohida hollarda bajarilgan ishlar amalga oshirilganda;
- b) markazlashtirilgan issiq suv ta‘minoti, sovuq suv ta‘minoti va (yoki) suv chiqarish tizimlarining, gaz ta‘minoti, issiqlik ta‘minoti, yoritish, transport, aloqa tizimlarining normal ishlashini buzadigan kutilmagan holatlarni bartaraf etishga doir ijtimoiy jihatdan zarur ishlar amalga oshirilganda;
- v) agar ishda tanaffusga yo‘l qo‘yilmasa, smena almashayotgan **“Xodim”** kelmay qolganda ishni davom ettirish uchun. Bunday holda **“Ish beruvchi”** zudlik bilan smenachini boshqa **“Xodim”** bilan almashtirish choralarini ko‘rishi shart.

Quyidagilarga ish vaqtdan tashqari ishlarga yo‘l qo‘yilmaydi:

- ish smenasining davomiyligi 12 soat bo‘lgan **“Xodimlar”** ga;
- mehnat sharoitlari o‘ta zararli va o‘ta xavfli ishlarni bajarayotgan i**“Xodimlar”**.

5.11 Homilador ayollar, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolaning (o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolaning) ota-onasidan biri (ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxs) faqat o‘z yozma roziligi bilan tungi ishlarga, ish vaqtdan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilinishi, shuningdek xizmat safariga yuborilishi mumkin.

Homilador ayollarni va uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga bunday ish homilador ayolning hamda bolaning hayotiga va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa mavjud bo‘lgan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi.

18 yoshgacha bo‘lgan **“Xodimlar”** ni xizmat safariga yuborish, tungi ishlarga, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilish taqiqlanadi.

Nogironligi bo‘lgan **“Xodimlar”** ni xizmat safariga yuborishga, tungi ishlarga, ish vaqtdan tashqari ishlarga hamda dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilishga faqat ularning roziligi bilan, agar ushbu xodimlar uchun bunday ishlar tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tavsiyalarida taqiqlanmagan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

5.12 Dam olish kunlarida va ishlanmaydigan bayram kunlarida ishlash taqiqlanadi.

Umuman **“Jamiyat”** ning yoki uning alohida tarkibiy bo‘linmalarining keyinchalik normal ishlashi oldindan kutilmagan qaysi ishlarning shoshilinch bajarilishiga bog‘liq bo‘lsa, o‘sha ishlarni bajarish zarur bo‘lgan taqdirda **“Xodimlar”** ni dam olish kunlari va ishlanmaydigan bayram kunlari ishga jalb etish ularning yozma roziligi bilan **“Jamoa shartnomasi”** da belgilangan tartibda **“Ish beruvchi”** ning yozma farmoyishi bilan amalga oshiriladi.

5.13 Barcha **“Xodimlar”** ga, shu jumladan o‘rindoshlik asosida ishlovchilarga, ish joyini saqlab qolgan holda yillik mehnat ta‘tili taqdim etiladi.

5.14. **“Jamiyat” “Xodimlar”**i quyidagi ijtimoiy ta‘tillarni olish huquqiga egadirlar:

- homiladorlik va tug‘ish ta‘tillari;
- bola parvarishlash ta‘tili;
- o‘quv ta‘tili;
- ijodiy ta‘tillar.

5.15 **“Xodim”** ning yozma arizasiga ko‘ra unga ish haqi saqlanmaydigan ta‘til berilishi mumkin bo‘lib, uning davomiyligi **“Xodim”** va **“Ish beruvchi”** o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra belgilanadi, lekin u ish haqi saqlanmaydigan oxirgi ta‘til berilgan kundan e‘tiboran kalendar yil davomida uzluksiz yoki jamlangan holda uch oydan oshmasligi kerak.

5.16 Har yilgi mehnat ta‘tili har yili, ushbu ta‘til berilayotgan ish yili tugaguniga qadar berilishi kerak.

5.17 Birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta‘tilidan foydalanish huquqi **“Xodim”** da u ushbu **“Jamiyat”** da uzluksiz ishlagan 6 oy o‘tganidan keyin yuzaga keladi. Ikkinchi va keyingi ish yillari uchun har yilgi mehnat ta‘tili **“Ish beruvchi”** va **“Xodim”** uchun majburiy bo‘lgan ta‘tillar jadvali bilan belgilanadigan har yilgi mehnat ta‘tillarini berish navbatiga muvofiq beriladi.

Ta‘tillar jadvali kalendar yil boshlanguniga qadar **“Ish beruvchi”** tomonidan **“Kasaba uyushmasi qo‘mitasi”** bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

“Xodim” har yilgi mehnat ta‘tili beriladigan vaqt to‘g‘risida ta‘til boshlanishidan kamida 15 kun oldin xabardor qilinishi kerak.

5.18 **“Xodim”** va **“Ish beruvchi”** o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra har yilgi mehnat ta‘tili qismlarga bo‘linishi mumkin. Bunda ushbu ta‘tilning hech bo‘lmaganda bir qismi 14 kalendar kundan kam bo‘lmasligi kerak.

Har yilgi mehnat ta‘tilidan chaqirib olishga ta‘tilning istalgan vaqtida faqat **“Xodim”** ning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. Shu munosabat bilan ta‘tilning foydalanilmay qolgan qismi **“Xodim”** ga mazkur ish yili davomida boshqa vaqtda berilishi kerak.

5.19 **“Xodimlar”** ga ish davrida ularning xohishiga ko‘ra har yilgi mehnat ta‘tili uchun ta‘tilning eng kam davomiyligidan tashqari pulli kompensatsiya to‘lanishi mumkin (21 kalendar kun).

18 yoshga to‘lmagan **“Xodimlar”** ga, I yoki II guruh nogironligi bo‘lgan **“Xodimlar”** ga beriladigan ijtimoiy ta‘tillarning barcha turlaridan, har yilgi uzaytirilgan asosiy mehnat ta‘tillaridan, mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarga qo‘shimcha ta‘tillardan asli holida foydalaniladi hamda mehnat davrida ularni pulli kompensatsiya bilan almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5.20 **“Xodim”** va **“Ish beruvchi”** o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra mehnat shartnomasini bekor qilish chog‘ida (bundan mehnat shartnomasi **“Xodim”** ning aybli harakatlari (harakatsizligi) uchun bekor qilingan hollar mustasno) foydalanilmagan har yilgi mehnat ta‘tillarini keyinchalik mehnatga oid munosabatlarni tugatgan holda **“Xodim”** ning yozma arizasi asosida berish nazarda tutilishi mumkin.

6. JAVOBGARLIK VA MEHNAT INTIZOMINI TA'MINLASH.

6.1 Mehnat intizomi barcha **“Xodimlar”** ning mehnat to'g'risidagi qonunchilikka, jamoa kelishuvlariga, jamoa shartnomasiga, shuningdek ichki mehnat tartibi qoidalariga, boshqa ichki hujjatlarga va mehnat shartnomasiga muvofiq belgilangan xulq-atvor qoidalariga majburiy bo'ysunishidir.

Mehnat intizomini buzganligi, ya'ni **“Xodim”** ning o'ziga yuklangan mehnat vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarganligi uchun **“Ish beruvchi”** **“Xodim”** ga quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llashga haqli:

- hayfsan;
- o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima;
- mehnat shartnomasini bekor qilish.

6.2 Mehnat intizomini muntazam ravishda buzganlik, shuningdek o'z mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol ravishda buzganlik uchun **“Xodim”** ga quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

- o'rtacha oylik ish haqining 50 % dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima;
- mehnat shartnomasini bekor qilish.

Avval mehnat majburiyatlarini buzganligi uchun **“Xodim”** intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan ta'sir choralari qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida **“Xodim”** tomonidan takroran intizomiy nojo'ya harakat sodir etilganligi mehnat majburiyatlarini muntazam ravishda buzishdir.

Bir marta qo'pol ravishda qoidabuzarliklarga quyidagilar kiradi:

1. Progul, quyidagilar progul hisoblanadi:

- a) butun ish kuni davomida ishga kelmaslik;
- b) uzrli sabablarsiz ish kuni davomida uzluksiz yoki jami 3 soatdan ortiq ish joyida bo'lmaslik;
- v) noma'lum muddatga mehnat shartnomasini tuzgan shaxs tomonidan **“Ish beruvchi”** ni shartnomani bekor qilish to'g'risida ogohlantirmasdan, shuningdek, ikki haftalik ogohlantirish muddati tugagunga qadar uzrli sabablarsiz ishni tark etish;
- g) mehnat shartnomasi muddati tugagunga qadar yoki mehnat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida ogohlantirish muddati tugagunga qadar ma'lum muddatga mehnat shartnomasini tuzgan shaxs tomonidan uzrli sabablarsiz ishni tark etish;
- d) otgul kunlaridan o'z boshimchalik bilan foydalanish, shuningdek ta'tilga o'z boshimchalik bilan ketish (asosiy, qo'shimcha);
- e) **“Ish beruvchi”** tomonidan amaldagi qonunchilikka to'liq rioya qilgan holda amalga oshirilgan **“Xodim”** ni yangi ishga o'tkazilgandan so'ng ishga chiqmaslik;
- j) guvohlarning ko'rsatmasi yoki tibbiy xulosa bilan tasdiqlangan alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida ishga kelish (mastlik holati mastlikda gumon qilinganligi to'g'risida dalolatnoma tuzish, gumon qilinuvchi **“Xodim”** ishlayotgan bo'linmaning mas'ul shaxslarining majburiy ishtiroki va majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi bilan aniqlanishi mumkin);

2. Ish joyida sodir etilgan, guvohlar tomonidan tasdiqlangan **“Jamiyat”** ning o'g'irlash talon-toroj qilish (yoki urinish);

3. Agar sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi yoki ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarori mavjud bo'lsa, mulkni yoki moddiy boyliklarni talon-toroj qilish yoki o'g'irlashga urinish, **“Jamiyat”** ning moddiy mulkini o'zlashtirish yoki buzish yoki yo'q qilish;

4. **“Xodimlar”** ning yoki qoidabuzarning o'zi hayoti yoki sog'lig'iga tahdid soladigan yoki og'ir oqibatlariga (ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa, avariya, falokat) olib kelgan yoki bila turib bunday oqibatlarining haqiqiy tahdidini yuzaga keltirgan xavfsizlik talablarini buzish;

5. Ishlab chiqarish texnologiyasini buzish, buning natijasida katta miqdorda moddiy zarar yetkazish (BHMning 30 baravaridan boshlab va yuqori);

6. Hujjatlardagi ma'lumotlarni qo'shimchalar yozish, buzib ko'rsatish;

7. Statistik hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatish, mansabdor shaxslarning vakolatlarini suiiste'mol qilish yoki ulardan shaxsiy manfaatlar maqsadida foydalanish;
8. Pul yoki tovar boyliklariga bevosita xizmat ko'rsatuvchi "**Xodim**" ning aybli xatti-harakatlarini amalga oshirish, agar bu harakatlar "**Ish beruvchi**" ning ishonchini yo'qotishiga sabab bo'lsa;
9. Mansabdor shaxsning o'z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim bo'lmagan darajada bajarganligi (ularga sovuqqon yoki vijdotsiz munosabat tufayli) davlat yoki jamoat manfaatlariga, fuqarolarning huquq yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga jiddiy zarar etkazishdan iborat bo'lgan mansabdor jinoyat turi;
10. Moddiy boyliklarni hisobga olish va saqlash qoidalarini buzish;
11. Ijro intizomini buzish (O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida, "**Jamiyat**" boshqaruv organlarining qarorlarida, "**Ish beruvchi**" ning buyruqlarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlamaslik);
12. "**Xodim**" ga o'z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lgan sirlarni (davlat, tijorat, rasmiy yoki boshqa) oshkor qilish (saqlanishi u bilan mehnat shartnomasida nazarda tutilgan), shu jumladan boshqa "**Xodim**" ning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilish;
13. "**Jamiyat**" "**Xodimlar**" ining ish joyidagi uxlashi;
14. HIQX o'qchilari tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari (kirish uchun ruxsatnomalar, bir martalik ruxsatnomalar, pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat) bo'lmagan shaxslarning "**Jamiyat**" hududiga o'tkazib yuborishi;
15. "**Jamiyat**" hududiga alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida bo'lgan shaxslarning HQX o'qchilari tomonidan o'tkazib yuborishi;
16. HQX o'qchilari tomonidan qorovul boshlig'ini ogohlantirmasdan biriktirilgan postni o'zboshimchalik bilan tark etishi;
17. "**Xodim**" ning o'z mehnat majburiyatlarini buzish, natijada "**Xodim**" "**Jamiyat**" ga O'zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan ortiq miqdorda moddiy zarar yetkazilishi;
18. "**Xodim**" tomonidan uzrli sabablarsiz mehnat majburiyatlarini takroran bajarmaslik, agar buning uchun echilmagan intizomiy jazo choralari ko'rilgan bo'lsa;
19. Yonuvchan, portlovchi yoki "**Jamiyat**" ning moddiy boyliklari saqlanadigan joylarda chekish yoki boshqa yong'in xavfsizligi qoidalarining buzish;
20. "**Xodim**" ushbu ishni davom ettirishga to'g'ri kelmaydigan axloqsiz xatti-harakatni amalga oshirishi;
21. Ish vaqtida ruxsat etilmagan mitinglarda, ko'cha yig'ilishlarida, ish tashlashlarda qatnashish;
22. Ish vaqtida kompyuter va boshqa qimor o'yinlarini o'ynash;
23. Ish joyidagi bezorilik (janjallar, yoqalashishlar, haqorat va boshqalar);

6.3 Intizomiy jazo choralari ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar tomonidan qo'llaniladi.

6.4. Bo'linma rahbarlari "Bo'linma to'g'risidagi Nizom" ga muvofiq, bo'linma "**Xodimlar**"i tomonidan mavjud mehnat va ishlab chiqarish intizomini buzganliklari to'g'risida zarur hujjatlar ilova qilingan holda xizmat xatni huquqbuzarlik sodir etilgan paytdan e'tiboran bir oydan kechiktirmay Boshqaruv Raisi nomiga

muayyan intizomiy jazo chorasini qo'llash zarurligi to'g'risidagi takliflar bilan tadqim etishlari shart. Xizmat xati "**Jamiyat**" ning Hujjatlarni ro'yxatga olish va ijrosini nazorat qilish bo'limi orqali taqdim etiladi.

6.5. Boshqaruv Raisi **Xodim**" bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish yoki unga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash to'g'risida tegishli qaror qabul qiladi va ushbu hujjatlar ijro etish uchun "**Kasaba uyushmasi qo'mitasi**", Kadrlar boshqarmasi yoki IHvaMRBga topshiriladi.

6.6. "**Kasaba uyushmasi qo'mitasi**" "**Xodim**" bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga roziligi masalasi bo'yicha qabul qilingan qaror haqida mehnat shartnomasini bekor qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning yozma taqdimnomasi olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda "**Ish beruvchi**" ga xabar qilishi kerak. Agar ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin kasaba uyushmasi qo'mitasi qabul qilingan qaror haqida xabar qilmasa, "**Ish beruvchi**" "**Xodim**" bilan tuzilgan mehnat shartnomasini Mehnat kodeksida belgilangan tartibda kasaba uyushmasi qo'mitasining rozilgisiz bekor qilishga haqli.

6.7. "**Ish beruvchi**" "**Xodim**" dan intizomiy jazo chorasini qo'llanilguniga qadar yozma tushuntirishni talab qilishi shart, unga sabab va sharoitlarni tushuntirish imkoniyati berilishi kerak. "**Xodim**"ning yozma tushuntirish taqdim etishni rad etganligi intizomiy jazo chorasini qo'llanilishi uchun monelik qilmaydi va hozir bo'lgan guvohlar ko'rsatilgan holda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

6.8. Har bir intizomiy qilmish uchun faqat bitta intizomiy jazo chorasini qo'llanilishi mumkin. Intizomiy jazo chorasini tanlash huquqi "**Ish beruvchi**" ga tegishlidir. Intizomiy jazo chorasini qo'llashda sodir etilgan qilmishning og'ir-yengilligi, uning sodir etilishi holatlari, "**Xodim**" ning avvalgi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi.

6.9. "**Xodim**" ga intizomiy jazo chorasini qo'llash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

6.10. "**Ish beruvchi**" ning "**Xodim**" ga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llash to'g'risidagi buyrug'i qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida, "**Xodim**" ishda bo'lmagan vaqt hisobga olinmasdan, unga jazoning sabablari ko'rsatilgan holda imzo qo'ydirib e'lon qilinadi.

6.11. O'ziga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llash haqidagi buyruq bilan tanishtirilmagan "**Xodim**" intizomiy jazosi bo'lmagan deb hisoblanadi.

6.12. "**Xodim**" ning o'ziga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llash to'g'risidagi buyruq bilan tanishishni rad etishi hozir bo'lgan guvohlar ko'rsatilgan holda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunday holda "**Xodim**" buyruq bilan tanishtirilgan deb hisoblanadi.

6.13 "**Xodim**" tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini, uning sodir etilishida "**Xodim**" ning aybini, "**Xodim**" tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, "**Ish beruvchi**"ga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararining xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda xizmat tekshiruvi o'tkaziladi. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi qaror tegishli buyruq bilan rasmiylashtiriladi (O'zR MK 302-311-moddlari).

6.14 Uzrlisababsiz progul qilgan "**Xodim**" xo'jalik faoliyatining asosiy natijalari uchun mukofotdan to'liq mahrum qilinadi, unga ushbu oyda progul uchun uzluksiz ish staji uchun ustama to'lanmaydi.

6.15 Intizomiy jazo intizomiy qilmish aniqlanganidan keyin darhol, biroq aniqlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llaniladi, bunda "**Xodim**" vaqtincha ishga layoqatsiz bo'lgan yoki ta'tilda bo'lgan davr hisobga olinmaydi.

Intizomiy jazo intizomiy qilmish sodir etilgan kundan e'tiboran 6 oydan kechiktirmay, taftish yoki moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yoxud auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra esa, u sodir etilgan kundan e'tiboran 2 yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Ushbu muddatlarga jinoyat ishini yuritish vaqti kiritilmaydi.

Huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab jazo qo'llash uchun belgilangan oylik muddatni hisoblashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- Xizmat tekshiruv natijalari to'g'risidagi dalolatnoma komissiya tomonidan imzolangan kun xizmat tekshiruv natijalari bo'yicha aniqlangan intizomiy qilmish aniqlangan kun deb hisoblanadi;

- **“Xodim”** ning vaqtincha ishga layoqatsiz bo'lgan yoki ta'tilda bo'lgan davri intizomiy jazo qo'llash uchun belgilangan oylik muddatga kiritilmaydi. **“Xodim”** ning boshqa sabablarga ko'ra ishda bo'lmasligi, shu jumladan davomiyligidan qat'i nazar, dam olish kunlaridan (dam olish vaqtidan) foydalanish bilan bog'liq holda, belgilangan muddatni to'xtatmaydi;

- bir oylik davomini to'xtatuvchi ta'tilga O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligi va mehnat shartnomasiga muvofiq **“Xodim”** ga berilgan barcha ta'tillar kiradi.

6.16 Intizomiy jazo chorasini qo'llashda sodir etilgan qilmishning og'ir-yengilligi, uning sodir etilishi holatlari, **“Xodim”** ning avvalgi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi.

6.17 Intizomiy jazoning amal qilish muddati bir yildan oshmasligi kerak.

Agar intizomiy jazo qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida **“Xodim”** ga yangi intizomiy jazo qo'llanilmasa, u intizomiy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi.

6.18. **“Ish beruvchi”** intizomiy jazoni o'z tashabbusiga ko'ra, **“Xodim”** ning bevosita rahbarining, **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** ning iltimosnomasiga, shuningdek **“Xodim”** ning iltimosiga ko'ra, bir yil o'tguniga qadar muddatidan oldin olib tashlash huquqiga ega.

Intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash **“Ish beruvchi”** ning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

6.19. Intizomiy jazoning amal qilish muddati ichida **“Xodim”** ga nisbatan rag'batlantirish choralari, shu jumladan mehnatga haq to'lash tizimiga kirmaydigan va mehnat natijalariga asoslanmagan mukofotlar ham (bayramlar, shu jumladan kasb bayramlari, yubileylar munosabati bilan va hokazolar) qo'llanilmaydi.

6.20 Intizomiy jazoning amal qilish muddati davomida mehnat intizomini buzgan shaxslar **“Jamiyat”** Nizomiga muvofiq barcha imtiyozlardan mahrum etiladi.

6.21 Ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar rag'batlantirish turlari jumlasiga kirmaydi.

6.22 Intizomiy jazolar **“Xodim”** tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

6.23 **“Xodimlar”** intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida chiqarilgan barcha buyruqlar **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

7. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi.

7.1 **“Xodimlar”** **“Jamiyat”** da amalda bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga rioya etishlari shart. Bu talablarga rioya qilmaslik intizomiy jazo choralari qo'llashga sabab bo'ladi.

7.2 Korxonada taqiqlanadi:

7.2.1. maxsus ajratilgan joylardan tashqari, binolarda va hududda chekish;

7.2.2. alkogolli ichimliklar olib kelish yoki iste'mol qilish, ish joyida mast holatda bo'lish;

7.2.3. to'g'ridan-to'g'ri ish joyida ovqat iste'mol qilish, uzluksiz texnologik jarayon tufayli **“Jamiyat”** oshxonalarida ovqatlanish imkoniga ega bo'lmagan ishchilar uchun maxsus jihozlangan ovqatlanish xonalari bundan mustasno;

7.2.4. **“Jamiyat”** ga tegishli bo'lgan mol-mulk, buyumlar yoki materiallarni o'z bilan birga olib ketish;

7.2.5. kiyim-kechak va shaxsiy buyumlarni echinish xonasi va ularni saqlash uchun mo'ljallangan joylardan tashqarida qoldirish;

7.2.6. - uyali telefonlar va boshqa mobil qurilmalarni olib kelish va ulardan foydalanish.

7.3 Har bir **“Xodim”** o'z ixtiyorida bo'lgan barcha shaxsiy yoki jamoaviy himoya vositalaridan foydalanishi va bu borada chiqarilgan maxsus farmoyishlarni qat'iy bajarishi shart.

7.4. Har bir **“Xodim”** DPOlarni ratsion bo'yicha qabul qilish talablariga rioya qilishi shart. Talonlarni sotish yoki ularni boshqa shaxslarga berish taqiqlanadi.

7.5. Tashqi ko'rinishga qo'yiladigan talablar **“Jamiyat”**ning ichki nizomlari/buyryqlari bilan belgilanadi.

8. Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi

8.1 Mehnat sohasidagi majburiyatlarni bajarish munosabati bilan boshqa tarafga zarar yetkazgan mehnat shartnomasi tarafi uni Mehnat kodeksiga, ushbu **“Qoidalar”** ga va **“Jamo'a shartnomasi”** ga muvofiq qoplaydi.

8.2 **“Ish beruvchi”** **“Xodim”** ga etkazilgan zararni quyidagi hollarda qoplashi shart:

- **“Xodim”** ni mehnat qilish imkoniyatidan noqonuniy mahrum qilganda;
- **“Xodim”** ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar etkazganda;
- **“Xodim”** ga to'lanadigan ish haqi va boshqa to'lovlarni kechiktirilganda;
- **“Xodim”** ning mulkiga zarar etkazilganda.

8.3 **“Ish beruvchi”** **“Xodim”**ga o'zining mehnat qilish imkoniyatidan noqonuniy mahrum qilingan barcha hollarda olmagan ish haqini qoplashi shart. Bunday majburiyat, agar ish haqi quyidagi sabablarga ko'ra berilmagan bo'lsa paydo bo'ladi:

- ishga qabul qilishni noqonuniy rad etilganda;
- **“Xodim”** ni boshqa ishga noqonuniy o'tkazganda;
- **“Xodim”** ni ishdan noqonuniy chetlashtirganda;
- **“Xodim”** bilan mehnat shartnomasini noqonuniy bekor qilganda;
- **“Ish beruvchi”** ning **“Xodim”** ga mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko'chirmani berishni kechiktirganda;
- mehnat nizolarini hal qiluvchi organning **“Xodim”** ni avvalgi ish joyiga tiklash to'g'risidagi qarorini o'z vaqtida bajarmaganda;
- **“Xodim”** ning sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi, boshqa ishga kirishiga to'sqinlik qiladigan har qanday usulda ma'lumotlarni tarqatganda;
- qonunlarda, jamoa shartnomalarida va (yoki) jamoa shartnomasida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

8.4 **“Ish beruvchi”** **“Xodim”** ning mehnatda mayib bo'lishi va (yoki) kasb kasalligi tufayli hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplashi shart.

“Xodim” ning sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini **“Ish beruvchi”** tomonidan qoplash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **“Xodim”** ga bir martalik nafaqa to'lash;
- **“Xodim”** ga yo'qotilgan ish haqi uchun yetkazilgan zararining o'rnini qoplash tarzida amalga oshiriladigan har oylik to'lovlar;
- **“Xodim”** ning qo'shimcha xarajatlarini kompensatsiya qilish.

“Xodim” ning sog'lig'iga zarar yetkazilganligi munosabati bilan bir yo'la to'lanadigan nafaqa miqdori jabrlangan **“Xodim”** ning o'rtacha oylik ish haqi asosida hisoblangan yillik ish haqidan kam bo'lmasligi kerak.

“Xodim” ning sog'lig'iga zarar yetkazilganligi munosabati bilan yo'qotilgan ish haqining o'rnini qoplash uchun amalga oshiriladigan oylik to'lovlar miqdori jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan uning kasbiy mehnat qobiliyatining yo'qotilishi darajasiga muvofiq bo'lgan foizli nisbatda aniqlanadi.

Kasbiy mehnat qobiliyatini yo‘qotish darajasi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Zararning o‘rnini qoplashga oid to‘lovni tayinlashda jabrlanuvchi oladigan ish haqi, stipendiya, pensiya va boshqa daromadlar hisobga olinmaydi. Bunda mehnatda mayib bo‘lgan jabrlanganlarga - nogironligi bo‘lgan shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining ellik foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Agar jabrlanuvchining qo‘pol ehtiyotsizligi zararning kelib chiqishiga yoki ko‘payishiga sabab bo‘lsa, o‘rni qoplanishi lozim bo‘lgan zarar miqdori jabrlanuvchi aybining darajasiga qarab, tegishli ravishda kamaytiriladi.

Jabrlanuvchining aybdorlik darajasi **“Kasaba uyushmasi qo‘mitasi”** ning qarori bilan, agar ushbu masala bo‘yicha nizo kelib chiqsa, sud tomonidan aniqlanadi.

8.5 Boquvchi bo‘lgan **“Xodim”** mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan mehnatda mayib bo‘lganligi, kasb kasalligi yoki sog‘liqqa yetkazilgan boshqa shikast tufayli vafot etgan taqdirda **“Ish beruvchi”** quyidagi zararning o‘rnini qoplashi shart:

- marhumning qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatini yo‘qotgan shaxslarga, shuningdek o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga yoki uning vafot etgan kuniga qadar undan ta‘minot olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga;
- marhumning vafotidan keyin tug‘ilgan farzandiga;
- ota-onasidan biriga (ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxsga), eriga (xotiniga) yoki boshqa oila a‘zosiga, agar u ishlamayotgan bo‘lsa hamda marhumning o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan yoki bu yoshga to‘lgan bo‘lsa-da, ammo tibbiy muassasalarning xulosasiga ko‘ra sog‘lig‘i holati bo‘yicha o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan bolalarini, aka-ukalarini, opa-singillarini yoki nabiralarini parvarish qilish bilan band bo‘lganda.

Bolalarning qaramoqda ekanligi taxmin qilinadi va dalillar talab qilmaydi.

Quyidagilar mehnatga qobiliyatsiz deb hisoblanadi:

- o‘n sakkiz yoshdan oshgan shaxslar, agar ularga shu yoshga to‘lguniga qadar nogironlik belgilangan bo‘lsa;
- oltmish yoshga to‘lgan erkaklar va ellik besh yoshga to‘lgan ayollar;
- oltmish yoshga to‘lgan erkaklar va ellik besh yoshga to‘lgan ayollar;
- o‘ziga nisbatan nogironlik belgilangan shaxslar.

Oila a‘zosining mehnatga qobiliyatsizligi yuz bergan vaqt (boquvchining vafotidan oldin yoki keyin) uning zararning o‘rni qoplanishiga bo‘lgan huquqiga ta‘sir qilmaydi.

Boquvchi vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan zararning o‘rni quyidagicha qoplanadi:

- voyaga yetmagan shaxslarga — o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar;
- o‘n sakkiz yoshdan oshgan o‘quvchilarga — kunduzgi ta‘limni tugatguniga, lekin ko‘pi bilan yigirma uch yoshga to‘lguniga qadar;
- ellik besh yoshdan oshgan ayollarga va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga — umrbod;
- nogironligi bo‘lgan shaxslarga - nogironlik muddatiga;
- marhumning qaramog‘ida bo‘lgan bolalarini, nabiralarini, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlash bilan band bo‘lgan ota-onasidan biriga, eriga (xotiniga) yoki boshqa oila a‘zosiga — qaramog‘idagi shaxslar o‘n to‘rt yoshga to‘lguniga qadar.

Boquvchi vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan zararning o‘rnini **“Ish beruvchi”** tomonidan qoplash boquvchi vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan zararning o‘rni **“Ish beruvchi”** tomonidan qoplanishiga doir huquqqa ega bo‘lgan shaxslarga quyidagilarni to‘lovlarni o‘z ichiga oladi:

- bir yo‘la beriladigan nafaqani;
- boquvchining yo‘qotilgan ish haqi o‘rnini qoplash uchun amalga oshiriladigan har oylik to‘lovlarni;
- qo‘shimcha xarajatlarni kompensatsiya qilishni.

Boquvchi vafot etganligi munosabati bilan bir yo‘la beriladigan nafaqaning miqdori marhumning o‘rtacha yillik ish haqining olti baravaridan kam bo‘lmasligi kerak.

8.6. **“Xodim”** ning mol-mulkiga zarar yetkazgan **“Ish beruvchi”**, agar u o‘zining aybi yo‘qligini isbotlab berolmasa, ushbu zararining o‘rnini to‘liq hajmda qoplaydi. Zararning miqdori zararining o‘rnini qoplash kuni mazkur hududda amalda bo‘lgan bozor narxlariga bo‘yicha hisoblab chiqariladi.

“Xodim” ning mol-mulkiga yetkazilgan zararining o‘rni **“Xodim”** ning roziligi bilan natura tarzida qoplanishi mumkin.

8.7 **“Xodim” “Ish beruvchi”** ga to‘g‘ridan to‘g‘ri yetkazilgan haqiqiy zararining o‘rnini qoplashi shart.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazilgan haqiqiy zarar deganda **“Ish beruvchi”** ning mavjud mol-mulki (shu jumladan uchinchi shaxslarning **“Ish beruvchi”** dagi mol-mulki, agar **“Ish beruvchi”** mazkur mol-mulkni but saqlanishi uchun javobgar bo‘lsa) amalda kamayganligi yoki yomon holatga kelganligi, shuningdek **“Ish beruvchi”** uchun mol-mulkni sotib olish, tiklash yoki **“Xodim”** tomonidan uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash uchun ortiqcha xarajatlar qilish va to‘lovlarni amalga oshirish zarurati tushuniladi.

8.8 Zarar uni bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch, oqlangan xo‘jalik tavakkalchiligi, oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa yoki **“Ish beruvchi”** ning **“Xodim”** ga ishonib topshirilgan mol-mulkni saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlash bo‘yicha majburiyatini bajarmaganligi oqibatida yuzaga kelgan hollarda **“Xodim”** ning moddiy javobgarligi istisno etiladi.

8.9 **“Ish beruvchi”** moddiy zarar yetkazilgan aniq sharoitlarni hisobga olgan holda zararni aybdor **“Xodim”** dan to‘liq yoki qisman undirishdan voz kechish huquqiga ega.

8.10 Agar mehnat qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, **“Xodim”** o‘zining o‘rtacha oylik ish haqi doirasida moddiy javobgar bo‘ladi.

8.11 Etkazilgan zarar uchun to‘liq miqdordagi moddiy javobgarlik quyidagi hollarda **“Xodim”** ning zimmasiga yuklatiladi:

- to‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risidagi shartnoma asosida o‘ziga ishonib topshirilgan qimmatliklarning kamomadida;
- **“Xodim”** tomonidan bir martalik hujjat (tovar-moddiy qimmatliklarni olish ishonchnomasi, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hokazolar) bo‘yicha olingan boyliklarning but saqlanishi ta‘minlanmaganda;
- qasddan zarar yetkazilganda;
- alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta‘siridan mastlik holatida zarar yetkazilganda;
- **“Xodim”** ning sud tomonidan aniqlangan jinoiy harakatlari natijasida zarar yetkazilganda;
- ma‘muriy huquqbuzarlik natijasida zarar yetkazilganda, agar bu tegishli davlat organi yoki sud tomonidan aniqlangan bo‘lsa;
- davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni (tijorat, xizmat sirini yoki boshqa sirlarni) tashkil etuvchi ma‘lumotlar oshkor qilinganda;
- **“Xodim”** mehnat majburiyatlarini bajarmagan taqdirda zarar yetkazilganda.

8.12. To‘liq moddiy javobgarlik ushbu Mehnat kodeksida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan o‘zga hollarda ham **“Xodim”** ning zimmasiga yuklatilishi mumkin.

8.13. Tashkilot rahbari, uning o‘rinbosarlari, tashkilot bosh buxgalteri, tashkilot alohida tuzilmasi rahbari Mehnat kodeksning 488-moddasiga muvofiq to‘liq moddiy javobgar bo‘ladi.

8.14. Muayyan **“Xodimlar”** tomonidan yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash to‘g‘risida qaror qabul qilishdan oldin **“Ish beruvchi”** yetkazilgan zararining miqdorini va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun xizmat tekshiruvi o‘tkazishi shart.

Zararning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun **“Xodim”** dan yozma tushuntirish talab qilish majburiydir. **“Xodim”** ning tushuntirish berishdan bosh tortishi uning **“Ish beruvchi”** ga zarar yetkazganlik uchun moddiy javobgarlikka tortilishiga monelik qilmaydi va hozir bo‘lgan guvohlar ko‘rsatilgan holda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

8.15. **“Ish beruvchi”** ga yetkazilgan zarar miqdori buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosidagi haqiqiy yo‘qotishlar bo‘yicha belgilanadi.

“Ish beruvchi” ning asosiy fondlarga (vositalarga) taalluqli bo‘lgan mol-mulkiga yetkazilgan zarar miqdori belgilangan normalarga ko‘ra eskirish chegirib tashlangan, moddiy qimmatliklarning balans qiymatidan (tannarxidan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

“Ish beruvchi” ning asosiy fondlarga (vositalarga) taalluqli mol-mulki o‘g‘irlangan, kamomad bo‘lgan, qasddan yo‘q qilingan yoki qasddan buzilgan taqdirda zararning miqdori zarar aniqlangan kunda ushbu hududda amalda bo‘lgan bozor narxlari bo‘yicha hisoblab chiqariladi. Boshqa hollarda zararning miqdori u yetkazilgan kuni mazkur hududda amalda bo‘lgan bozor narxlari bo‘yicha hisoblab chiqariladi.

8.16. **“Ish beruvchi”** ga zarar yetkazganlikda aybdor bo‘lgan **“Xodim”** zararning o‘rmini ixtiyoriy ravishda to‘liq yoki qisman qoplashga haqli.

8.17 **“Ish beruvchi”** ga o‘rtacha oylik ish haqidan ortiq bo‘lmagan miqdorda yetkazilgan zarar summasini aybdor **“Xodim”** dan undirish **“Ish beruvchi”** ning zarar aniqlangan kundan e‘tiboran bir oydan kechiktirilmay qabul qilingan buyrug‘iga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar yetkazilgan zararning **“Xodim”** dan undirilishi lozim bo‘lgan summasi uning o‘rtacha oylik ish haqidan oshib ketsa yoki zarar aniqlangan kundan e‘tiboran bir oylik muddat o‘tgan bo‘lsa, undirish sud tartibida amalga oshiriladi.

8.18. **“Jamiyat”** ga uning mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlaydigan rahbari tomonidan yetkazilgan zararning o‘rni mehnat qonunchiligi qoidalariga rioya etilgan holda qoplanadi.

9. MEHNAT UCHUN RAG‘BARLANTIRISH.

9.1 Mehnat majburiyatlarini lozim darajada bajarish, yuqori ishlab chiqarish natijalariga erishish, **“Jamiyat”** da uzoq muddatli va benuqson mehnat qilish va ishdagi boshqa yutuqlar uchun **“Jamiyat”** xodimlariga nisbatan quyidagi rag‘batlantirish choralarini qo‘llanilishi mumkin:

- tashakkurnoma e‘lon qilish;

- Faxriy yorliq, rag‘batlantiruvchi mukofotlar va qimmatbaho sovg‘alar bilan mukofotlash.

“Xodimlar” **“Jamiyat”** va davlat oldida mehnatdagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga, Hokimiyat mukofotlariga, **“O‘z kimyosanoat”** AJ mukofotlariga tavsiya etilishi mumkin.

9.2 O‘z mehnat majburiyatlarini muvaffaqiyatli va vijdonan bajarayotgan **“Xodimlar”** ga, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xizmat ko‘rsatish sohasida (O‘zbekiston Respublikasi sanatoriylariga, dam olish uylariga, dispanserlarga yo‘llanmalar va boshqalar) afzalliklar va imtiyozlar beriladi.

9.3 Rag‘batlantirish ushbu **“Xodim”** ishlayotgan tarkibiy bo‘linma rahbari yoki mehnat jamoasining iltimosiga binoan Boshqaruv Raisi tomonidan chiqarilgan buyruq bilan e‘lon qilinadi.

10. MEHNAT SHARTNOMASI TARAFLARI O‘RTASIDAGI KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH.

10.1. Har bir **“Xodim”** qonunda, ushbu Qoidalarda, korxonaning boshqa mahalliy hujjatlarida va mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat huquqlarini himoya qilish, shu jumladan sud himoyasi, shuningdek malakali yuridik yordam olish huquqiga ega.

10.2. O'z huquqlarini buzilgan deb hisoblagan **“Xodim”** mustaqil ravishda yoki **“Kasaba uyushmasi qo'mitasi”** orqali **“Ish beruvchi”** ga og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qilish huquqiga ega. **“Xodim”** ning murojaati ro'yxatga olish va nazorat qilish Bo'limida ro'yxatga olinishi kerak.

10.3. **“Xodim”**ga uning murojaati mohiyati bo'yicha ko'rib chiqilgandan so'ng yozma ravishda javob yuboriladi.

Mehnat sharoitlarini o'zgartirish to'g'risidagi murojaatga javob, agar bunday o'zgartirish huquqi qonunda nazarda tutilgan bo'lsa, **“Xodim”** ga uch kundan kechiktirmay yuborilishi kerak.

Agar ushbu holatda **“Xodim”** va **“Ish beruvchi”** o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelsa yoki u **“Ish beruvchi”** ning javobidan norozi bo'lsa, **“Xodim”** o'z xohishiga ko'ra mehnat nizolarini mehnat nizolari komissiyasiga (keyingi o'rinlarda matnda – MNK deb yuritiladi) yoki to'g'ridan-to'g'ri sudga, shuningdek korxonada xodimlarini himoya qilish vakolatiga kiruvchi boshqa organlarga murojaat qilish yo'li bilan hal qilishga haqli.

10.4. **“Xodim”** tomonidan MNKga taqdim etilgan ariza ro'yxatga olinadi va arizani topshirgan **“Xodim”** ishtirokida topshirilgan kundan boshlab o'n kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Arizani ko'rib chiqishda **“Xodim”** yo'q bo'lganda faqat uning yozma arizasiga binoan yo'l qo'yiladi. Agar **“Xodim”** uzrli sabablarsiz komissiya yig'ilishiga kelmasa, arizani ko'rib chiqishni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin, ushbu esa **“Xodim”**ga arizani qayta topshirishga to'sqinlik qilmaydi.

10.5. MNK qarori ustidan **“Xodim”** yoki **“Ish beruvchi”** tomonidan MNK qarorining nusxasi olingan kundan boshlab 10 kun ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

10.6. **“Xodim”** quyidagi muddatlarda sudga yoki MNKga murojaat qilish huquqiga ega:

10.6.1. **“Xodim”** ga u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruq nusxasi topshirilgan kundan boshlab uch oydan kechiktirmay ishga qayta tiklash to'g'risidagi nizolarda;

10.6.2 **“Ish beruvchi”** ga etkazilgan moddiy zararni - **“Ish beruvchi”** etkazilgan zararni aniqlagan kundan bir yil muddatda **“Xodim”** tomonidan qoplab berish nizolarida;

10.6.3. Boshqa nizolar bo'yicha - **“Xodim”** o'z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan boshlab uch oydan kechiktirmay.

“Xodim” ning sog'lig'iga etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolarda, shuningdek **“Xodim”** ga etkazilgan ma'naviy zarar kompensatsiyasi bo'yicha nizolar - sudga murojaat qilish muddati cheklanmagan.

Individual mehnat nizolarini ko'rib chiqish davrida, mediatsiya tartibida, individual mehnat nizolarini korib chiqish bo'yicha sudga murojaat qilish muddatini o'tishi to'xtatib turiladi.

Besh kunlik ish haftasi bilan quyidagi ish boshlash jadvali belgilanangan:

- a) soat 7-00 dan - Ammofos-2, 3; EFK-2, 3; STvaO, ATS, ETS, NO‘AvaA markaziy sexi, TYS, TMS, XS, BQS, TNB, SAB, compressor stansiyasi, sanitar laboratoriyasi, metrologiya o‘lchov laboratoriyasi, MBX ishchilari (sexlarda ishlaydigan RIAB iqtisodchilari) xodimlari;
- b) soat 8-00 dan - boshqarma xodimlari, SKXTX, IAH, KQB (TQB), LKB, smetalash byurosi, HROvaINQB, MMIIvaKAB, TFB, XTO‘M, MBM, IOB, IChNX, PENUL, HGQO, AKTB, MOH, TQMS, ITKTL, HQX, TMS (ishlab chiqarish hammom (dushlari) ishchilari – 1 birlik, Ammofos-2, 3 sexi hisobchilari; 1 toifali Ammofos-2, 3 va EFK-2, 3 sexlari mehnatni tashkillashtirish va normalash bo‘yicha muhandislari;
- v) soat 9-00 dan 18-00 gacha Ammofos-2 tarozibonlari, 11-00 dan 12-00 gacha tushlik tanaffusi;
- g) TMS sexi nasos uchastkasining ishchilariga quyidagi smenali ish jadvali belgilansin:
1 smena – 7-00 dan 16-00 gacha, tushlik tanaffusi 11-00 dan 12-00 gacha;
2 smena – 14-00 dan 23-00 gacha, tushlik tanaffusi 18-00dan 19-00gacha;
- d) TMS sexi nasos uchastkasining elektrogazpayvandchisi ish vaqti – 9-00 dan 18-00 gacha, tushlik tanaffusi 13-00 dan 14-00 gacha.

Ijtimoiy-madaniy obyektlar.

Davolash sog‘lomlashtirish diagnostika sexi.

Tibbiyot xodimlari uchun 1 soatlik tushlik tanaffusi bilan 6 soat davom etadigan **6 kunlik ish haftasi**, ish boshlanishi soat **8-00 dan**.

7 soat davom etadigan **6 kunlik ish haftasi**, shanba kuni 5 soat, 1 soatlik tushlik tanaffusi bilan, ish boshlanishi soat **8-00 dan**:

- hudud farroshi, bog‘bon, AVI chilangari, kir yuvish mashinisti, xizmat xonalari farroshi, omborchi, avtomashina (yengil) haydovchisi, kassir-inkassator, sanitarka.

- navbatchi xodimlar - hamshira, sanitarka - **7-sonli jadvalga muvofiq**.

Tibbiy punkt.

7,2 soat davom etadigan **5 kunlik ish haftasi**, 1 soatlik tushlik tanaffusi bilan ish boshlanishi:

- tibbiy punkt mudiri, feldsher, hamshira - **7-00 dan**;

- smenali hamshira xodimlari - **3-sonli jadvalga muvofiq**;

8 soat davom etadigan **5 kunlik ish haftasi**, ish boshlanishi soat **7-00 dan**, 1 soatlik tushlik tanaffusi bilan:

- xizmat xonalari farroshi.

“Kimyogar” madaniy-sport majmuasi.

8 soat davom etadigan **5 kunlik ish haftasi**, ish boshlanishi soat **8-00 dan** 1 soatlik tushlik tanaffusi bilan:

- boshliq, boshliq o‘rinbosari, energetik-muhandis, instruktor, badiiy-bezatuvchi, omborchi, elektr yorituvchi, elektrogazpayvandchisi, ATI chilangari, bog‘bon, obodlashtiruvchi, xizmat xonalari farroshi, hudud farroshi.

7 soat davom etadigan **6 kunlik ish haftasi**, shanba kuni 5 soat, ish boshlanishi soat **7-00 dan**, 1 soatlik tushlik tanaffusi bilan:

- murabbiy, tennis sporti bo‘yicha murabbiy, taekvondo murabbiyi, futbol murabbiyi.

“Guliston” dam olish hududi, “Chimyon” BSO

8 soat davom etadigan **5 kunlik ish haftasi**, ish boshlanishi soat **8-00 dan**, 1 soatlik tushlik tanaffusi bilan:

- Qorovul - **2-sonli jadvalga muvofiq**.

Ijtimoiy obyektlar boshqarmasi.

8 soat davom etadigan **5 kunlik ish haftasi**, ish boshlanishi soat **8-00 dan**, 1 soatlik tushlik tanaffusi bilan.

Tushlik tanaffusi jadvali**1 1-sonli oshxona (1, 2-qavat)**

Ammofos-2; EFK-2; TQMS sexlari xodimlari TMS, TYS, ETS, TNB, NO' AvaA,	- 10-45dan 11-45gacha
MO'L, ITKTL (PMU laboratoriyasi) xodimlari ATS **, TQS, PENUL, MMvaTXB, AMMQB,	- 11-30dan 12-30gacha
ICHNX, HGQO, Tibbiy punkt, HQX*** xodimlari	- 12-15dan 13-15gacha.

2 2-sonli oshxona (1, 2-qavat)

Ammofos-3; EFK-3, SAB, TQMS* xodimlari BQS, STvaK, San.laboratoriyasi,	- 10-45dan 11-45gacha
ITKTL (EFK laboratoriyasi), TQMS sanoat bazasi xodimlari MOX, kompressor stansiyasi, HQX*** xodimlari	- 11-30dan 12-30gacha - 12-15dan 13-15gacha.

3 "Kimyogar" oshxonasi

Xo'jalik sexi, ATS (f/g uchastkasi) xodimlari Zavod boshqaruvi, XTO'M, MBM, KQB,	- 11-30dan 12-00gacha
AKTB, TFB, LKB, Smetalash byurosi, HROvaINQB, SKXTX, IOB, IAH, MMIIvaKAB, HQX***, ITKTL xodimlari	- 12-00dan 13-00gacha.

Eslatma:

* TQMS xodimlarining tushlik vaqti birlashtirilgan sexlarning tushlik vaqti va joyiga ko'ra belgilangan.

** Ishlab chiqarish bo'linmalariga yuborilgan ATS avtomashinalari haydovchilarining tushlik vaqti ushbu bo'linmalar uchun tushlik vaqti va joyiga qarab belgilangan.

*** HQX xizmatchilarning tushlik vaqti postlarning hududdagi joylashuviga qarab belgilangan.

**1-son smena jadvali
(to'rtbrigadalik)**

Uzluksiz ishlab chiqarish
Uzluksiz ishlab chiqarish
Smenalar soni – 3

Smenaning davomiyligi – 8 soat

1-sonli smena jadvali uzluksiz ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq ish bilan shug'ullanadigan xodimlar uchun o'rnatiladi: Ammofos-2, Ammofos-3, EFK-2, EFK-3, TNB (nazoratchilar), SAB sexlari.

Dastlabki ma'lumotlar:

1 smena 23:00 dan 7:00 gacha

2 smena 7:00 dan 15:00 gacha

3 smena 15:00 dan 23:00 gacha

Tushlik tanaffussiz, ovqatlar maxsus ajratilgan joylarda tanovul qilinadi.

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
A smenasi	8t	8t	-	8k	8k	8k	-	8	8	8	-	8t	8t	8t	-	8k	8k
B smenasi	8	-	8t	8t	8t	-	8k	8k	8k	-	8	8	8	-	8t	8t	8t
V smenasi	8k	8k	8k	-	8	8	8	-	8t	8t	8t	-	8k	8k	8k	-	8
G smenasi	-	8	8	8	-	8t	8t	8t	-	8k	8k	8k	-	8	8	8	-

18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31
8k	-	8	8	8	-	8t	8t	8t	-	8k	8k	8k	-

-	8k	8k	8k	-	8	8	8	-	8t	8t	8t	-	8k
8	8	-	8t	8t	8t	-	8k	8k	8k	-	8	8	8
8t	8t	8t	-	8k	8k	8k	-	8	8	8	-	8t	8t

**2-son smena jadvali
(to'rtbrigadalik)**

Smenali ishlab chiqarish

Smenalar soni – 2

Smenaning davomiyligi – 11,5 soat

Jadval IChMvaTRB dispetcherlari, “Chimyon” BSO qorovullari, HGQO va HQX smena xodimlari uchun belgilanadi.

Dastlabki ma'lumotlar::

1 smena 8:00dan 20:00gacha

2 smena 20:00dan 8:00gacha

Tushlik tanaffusi 0,5 soat

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A smenasi	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5
B smenasi	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-
V smenasi	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4
G smenasi	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5

16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31
	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,4
11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-
7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4
-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5	-	11,5	4	7,5

**3-son smena jadvali
(to'rtbrigadalik)**

Smenali ishlab chiqarish

Smenalar soni – 2

Smenaning davomiyligi – 11,5 soat

Jadval quyidagilarga o'rnatiladi:

Avtosex:

- yoqilg'i-moylash materiallari zapravkachisi,
- “ISUZU” avtobus haydovchisi,
- og'ir yuk tashuvchi BelAZ kon samosvalining haydovchisi;
- avtomashina haydovchisi (damas avtomobili (tez yordam mashinasi),
- avtomashina haydovchisi (DAMAS yengil avtomobili (navbatchi),
- avtomobil ta'mirlash chilangari (navbatchi xodimlar),
- fosfogipsni olib chiqish va joylash uchastkasi smena ustasi;
- traktor haydovchisi – 4 ta birlik,
- yuk ortgich mashinisti (bir kovshli/frontal/gidravlik) – 8 ta birlik,
- yuk ortgich mashinisti – 8 ta birlik.

Elektrta'minot sexi:

- smena ustasi,
- TvaNB elektr jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor – 13 ta birlik (navbatchi xodimlar),
- aloqa uchastkasining stansiya uskunalari va telefon aloqasi elektrmontyori – 4 ta birlik,
- gaz ta'minoti uchastkasining ATI chilangari (navbatchi xodimlar).

TYS:

- smena ustasi,
- stansiya navbatchisi,
- teplovoz mashinisti,
- teplovoz mashinistining yordamchisi,
- yuk va bagajlarni qabul qilib topshiruvchi,
- ta'mirlovchi-nazoratchi,
- elektrogazpayvandchi,
- harakatlanuvchi tarkibni ta'mirlash chilangari.

Bug' – qozon sexi:

- smena ustasi,
- qozonlarni boshqarish markaziy issig'lik boshqaruv schiti mashinisti,
- suvni kimyoviy tozalash apparatchigi,
- ta'mirlovchi-chilangar (navbatchi xodimlar),
- elektr-chilangar (navbatchi xodimlar).

Kompressor stantsiyasi:

- kompressor qurilmalari mashinisti.

STvaO sexi:

- smena ustasi,
- nasos qurilmalari mashinisti,
- xlrlash qurilmalari operatori,
- ATI chilangari (navbatchi xodimlar),
- chilangar-elektrik (navbatchi xodimlar).

TNB:

- tarozibon.

ITKTL:

- asosiy ishlab chiqarish laboratoriyasining kimyoviy tahlil laboranti.

Tibbiy punkt:

